O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

“Tasdiqlayman”
O’quv ishlari bo’yicha
prorektor D.Q. Durdiyev
_____ 2011 y

Chet tillar kafedrasi

nemis tili o’qituvchisi___ M. Q Ro’ziyevning___

o’quv-usuliy majmuasi

Ta’lim yo’nalishi:
Ta’lim shakli:
Fan o’qitiladigan semestr:
Umumiy yuklama:
Amaliy mashg’ulot:
Mustaqil ta’lim:

Buxoro-2011 yil

Mundarija

1. Chet tillar kafedrasining 2011-yil 24– iyundagi 10– yig’ilish bayonnomasidan ko’chirma
2. Namunaviy o’quv dasturi
3. Ishchi o’quv dasturi
4. Ta’lim berish texnologiyasi modeli
5. Darsning texnologik xaritasi
6. Tarqatma materiallar
7. Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati
8. Nazorat turlari bo’yicha reyting jadvali va baholash mezoni
9. Nazorat savollari (joriy, oraliq, yakuniy)
10. Mustaqil ta’lim bo’yicha uslubiy ko’satma va baholash mezoni
11. Darsda qo’llaniladigan ko’rgazmali qurollar ro’yxati
12. Chet tillar kafedrasi tomonidan qo’llanilayotgan asosiy adabiyotlar ro’yxati va ularning annotatsiyasi
13. YPT
14. Mutaxassislikka oid atamalar
15. O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi Buxoro davlat universitetida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to’g’risida NIZOM

Chet tillar kafedrasining 2011-yil 25-avgustgi 1-yig'ilish bayonnomasidan

ko'chirma

Qatnashdi: Kafedraning hamma a'zosi

KUN TARTIBI

4. Turli masala. Kafedra a'zolarining o'quv-usuliy majmuasi haqida

Eshitildi: Ushbu masala yuzasidan kafedra mudiri Z.B.Toshov jumladan shunday dedi:

2011 – 2012 o'quv yili uchun kafedra professor -o'qituvchilari tomonidan yanada mukammallashtirib tayyorlangan o'quv-usuliy majmua quyidagi qismlardan iborat:

Mundarija

1. Chet tillar kafedrasining 2011-yil 24– iyundagi 10– yig'ilish bayonnomasidan ko'chirma
2. Namunaviy o'quv dasturi
3. Ishchi o'quv dasturi
4. Ta'lim berish texnologiyasi modeli
5. Darsning texnologik xaritasi
6. Tarqatma materiallar
7. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
8. Nazorat turlari bo'yicha reyting jadvali va baholash mezoni
9. Nazorat savollari (joriy, oraliq, yakuniy)
10. Mustaqil ta'lim bo'yicha uslubiy ko'satma va baholash mezoni
11. Darsda qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar ro'yxati
12. Chet tillar kafedrasi tomonidan qo'llanilayotgan asosiy adabiyotlar ro'yxati va ularning annotatsiyasi
13. YPT
14. Mutaxassislikka oid atamalar
15. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Buxoro davlat universitetida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida NIZOM

Muhokama mobaynida kafedra mudiri va seksiya boshliqlari (O' Mavlonova, M. Jo'rayeva, M. Mirzayeva) o'qituvchilarning o'quv-usuliy majmuasidagi mavjud xato va kamchiliklarni aniq ko'rsatishdi. Ularni tuzatishdan keyin pereplyot qilish tayinlandi. Bu ishlarni nazorat qilish kabinet mudiri D. Mirxonovaga topshirildi.

QAROR QILINDI:

1. Kafedra professor -o'qituvchilari tomonidan 2011 – 2012 o'quv yili uchun tayyorlangan o'quv-usuliy majmua tasdiqlansin.
2. Ushbu qarorni tasdiqlash fakultet ilmiy kengashidan so'ralsin.

Kafedra mudiri: katta o'qit. Fayzullayev O.

Kotiba: S.Samadova

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O’RTA TA’LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Xorijiy tillar fanidan
(nemis tili)

O’QUV USLUBIY

KOMPLEKS

Bilim sohasi: 100000 – Ta’lim

Ta’lim sohasi: 140000 – O’qituvchi tayyorlash va pedagogika fani.

Bakalavriat yo’nalishi: 5141900 – Jismoniy madaniyat va jismoniy tarbiya.

Tuzuvchi: **Ro’ziyev Muxtor Qayumovich**

Buxoro – 2011y

ЎЗБЕКИСТОН РЕПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС, КАСБ – ҲУНАР ТАЪЛИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ

Тасдикланди
Ўз. Р.О.Ў.М.Т.В.
Ваз.ўр._____Ш.Аюпов
_____2004й.

“ХОРИЖИЙ ТИЛЛАР”

фанидан намунавий

Д А С Т У Р

ТОШКЕНТ - 2004

Ушбу дастур «Хорижий тиллар» фанидан бакалавриат талабаларининг зарурий тайёргарлик даражаси ва билимлари мазмунига қўйиладиган талаблар асосида тайёрланган. Малакавий талаблар бакалавр талабаларининг фан бўйича **қандай тасаввурга эга бўлиши, нималарни билиши кераклиги, қандай кўникмалар ҳосил қилиши лозимлигини ўз ичига олади.**

Ушбу намунавий дастур шу фанга оид ишчи ўқув дастури, йиллик тақвимли режалар, мавзули дастурлари, дарслик ва ўқув-методик қўлланмаларни тайёрлашда фойдаланиш учун тавсия этилади. Намунавий дастурни келажакда тўлдирилган ва бойитилган ҳолда чоп этиш заруратини ҳисобга олиб, фикр-мулоҳазаларингизни қуйидаги манзилга юборишингиз-ни сўраймиз:

Тошкент шаҳар, 700070, Шота Руставели кўчаси 25, ОЎМКҲТРМ Маънавият ва маърифат бўлими, тел.: 136-39-20.

Мазкур дастур намунавий дастур сифатида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ижтимоий комплексининг махсус методологик комиссияси баённомаси ва Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, олий ўқув юртлари илмий-услубий бирлашмалар фаолиятини Мувофиқлаштирувчи Кенгаш Президиумининг 2003 йил 15 февралдаги 33-сонли мажлис қарори билан тавсия этилган.

Нашрга тайёрловчи масъуллар: проф.
Нишоналиев У., Ҳамдамова М.З.

Тузувчилар: Мухитдинова Г.Ш. ТошАЙИ профессори,
Мусаев Т.Т. ф.ф.н.

Тақризчилар: Зоҳидов И. Г. ф.ф.н., доц.,
Елина Н. П. ф.ф.н.доц., Буранова М.М. доц.

1. СЎЗ БОШИ

1.1. Фан мазмунига қўйиладиган малакавий талаблар

Бакалавр «Хорижий тиллар» фанлари бўйича:

Хорижий тилларнинг товуш тизими ва морфологиясининг ома тили товуш тизими ва морфологияси билан фарқли ва ўхшаш томонлари тўғрисида:

- хорижий тиллардаги ran тузилиши ва гапдаги сўзларнинг тпртиби тўғрисида;
- хорижий тилларда сўзларнинг услубий қўлланиши тўғ-рмсида ***тасаввурга эга бўлиши лозим.***

Хорижий тилларнинг товуш хусусиятларини билиши, нутқ товушлари ва сўзларни тўғри талаффуз қилишни:

- хорижий тиллар синтаксиси талаблари асосида мазкур тилларда тўғри ran тузишни;
- боғланишли матн тузишни;
- ўз соҳаси доирасида шу тилда фикр ифодалай олишни ***билиши керак.***
- хорижий тиллар бўйича олган билимлари ва ҳосил қилган кўникмалари асосида ёзма ишлар (реферат, таржима вл бошқалар)ни тайёрлай олиш;
- илмий атамаларни тушуниш ва тилдан фойдаланиш жариёнида қўллаш;
- ўз сохаси бўйича хорижий тилдан илмий-техник адаби-ётлардан фойдалана олиш ***кўникмасига эга бўлиши лозим.***

Давримизнинг ўзига хос жиҳати ҳисобланган илмий-техник тараққиёт тиллараро илмий-техник мулоқотнинг фаоллашувини тақозо этмоқца. Тиллараро мулоқот хорижий илмий-техник ахборотни излаш ва ўзлаштиришда алоҳида аҳамият касб этиб, бу жараёнда йил сайин фан, техника ва маданиятнинг турли соҳалари мутахассислари иштирок этмоқда. Бизнинг давримизда хорижий тилни ишлаб чиқариш ва илмий мақсадларда қўллаш даражасида эгалламаган муҳандис ёки иқтисодчини тасаввур қилиш қийин. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1990 йил

1 майда чиқарилган "Минтақавий олий ўқув юртларни ривожлантириш^ва, олий ўқув юртларига қабул тўррисидаги Қарори, Кадрлар тайёрлаш миллий дастури ва Таълим тўғрисидаги Қонун хорижий тилни мукаммал ўрганиш ва уни ўзи танлаган мутахассислик доирасида амалий қўллашни тақозо этади.

"Хорижий тил" фанининг малакавий тавсифи қуйидаги-ларга асосланади:

1. Хорижий тилларни ўқитиш жараёнида таълимий вазифаларни тарбиявий ишлар билан уйғунлаштириш лозим, яъни, тала-баларда масъулият ҳисси, юксак ахлоқ ва поклик, Ватанга муҳаббат ва садоқат, миллий меросни эъзозлаш руҳини тарбиялаш лозим. Хорижий фуқаролар билан хар қандай оғзаки мулоқот жараёнида бизнинг мутахассис ўзини мустақил Ўзбекистон Республикасининг фуқароси сифатида намоён қилиши лозим. Бунинг учун у республиканинг сиёсий тузуми, ички ва ташқи сиёсатини яхши билиши ва булар ҳақида хориж-лик сухбатдошига чет тилида сўзлаб бера олиши лозим. Бўлажак мутахассис ғоявий-ватанпарварлик, сиёсий, ижтимоий, иқтисодий мавзуларда сўзлаша олиш кўникмаларига эга бўлиши лозим.

2. Ёзма илмий-техник мулоқотнинг ахамияти беқиёсдир. Агар оғзаки мулокрт тасодифий, эпизодик характерга эга бўлса, ёзма мулоқот хорижий илмий-техник адабиётларни ўрганиш, ўз мутахассислиги доирасида зарур маълумотларни излаб топиш, турли рефератлар, аннотациялар яратишда фойдалана олиш кўникмаларига эга бўлиши лозим.

3. Мутахассисларимизнинг хорижий ҳамкасабалари билан мулоқотга киришишлари мумкинлигини \исобга олиб, уларни махсус мавзулар бўйича хорижий тилда мулоқотга киришишга ўргатиш зарур. Шундай қилиб, баён қилинган вазифалар асосида хорижий тиллар кафедралари олдида қуйидаги вазифалар туради: талабаларда танлаган мутахассисликлари доирасида хорижий тиллар бўйича етарли билим ва кўникмалар ҳосил қилиш. Бу вазифани қуйидаги тарзда янада кенг ва аниқ баён қилиш мумкин:

- бўлажак мутахассисда ижтимоий-сиёсий, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, ташқи иқтисодий алоқалар мавзулари бўйича оғзаки нутқ малакаларини ҳосил қилиш;

ўрганилаётган матн бўйича назорат машқлари (фонетик, лексик, сўз ясаш ва грамматика)ни бажариш;

- гапириш ва эшитишни машқ қилиш, бевосита мулоқотда ва фоноёзувда нутқни тушуниш (ўқитувчи, талабалар); гапириш ва эшитиш ўрганилаётган асосий дарс ёки ўқилган адабиёт, мақола мазмуни билан солиштирилади;
- ҳар бир бетнинг ҳажми 1800-2000 босма белгиси бўлган ҳажмдаги 1-2 бет матнни ҳафтасига мустақил ҳолда аудиториядан ташари ўқиш ва уни кейинчалик қисқа ахборот, муҳокама ёки матндан танланган ўринларни таржима қилиш шаклида назорат қилиш.

Ўқув материнининг характери:

- аудитория ўқув машғулотларида мутолаага ўргатиш учун ўрганилаётган тилда аниқ мавзу ва тугал мазмунини матнлардан фойдаланилади. Бу матнлар талабаларга лексик минимумни ўзлаштириш имконини беради. Шу билан бирга сўз ясаш ва грамматик минимум ҳам назарда тутилади. Матнлар тегишли матн олди машқларига эга бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси мустақиллиги эълон қилинганлига муносабати билан таълимнинг биринчи босқичида қуйидаги мавзулар тавсия қилинади: "Мустақил Ўзбекистон", "Ўзбекистон Республикаси Конституцияси", "Ўзбекистон Республикасида олий таълим", "Олий ўқув юрти", "Ўзбекистон Республикасининг ички ва ташқи сиёсати", "Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш", "Ўрганилаётган тил мамлакатлари", "Ўзбекистон Республикасининг ташқи иқтисодий алоқалари" ва бошқалар.
- аудитория машғулотларида ахборот-маъмурий материалини сўраш ва эшитишга ўргатиш пайтида мотивация ва вазиятлиликни таъминлаш учун ўқитишга ўргатишда фойдаланиладиган асосий мавзуларга мос келувчи турли адабиётлардан олинган мақолалар ва илми-оммабоп матнлардан фойдаланилади. Мазкур мақолаларнинг мазмуни сўзлашув мавзулари, яъни плёнкага ёзилган ва ўқитувчилар талабаларнинг монологик ва диалогик нутқлари мотивациясининг асоси ҳисобланади. Бу материаллардан талабаларни эшитишга ўргатишда фойдаланилади;
- мустақил аудиториядан ташқари мутолаа учун даврий матбуотнинг йиллик ва бошқа нашрлари тавсия этилади. Ўй муто-лааси мақолаларининг мавзуси ўқув аудитория машғулот-ларида фойдаланиладиган асосий матнлар мавзусига мос келиши лозим.

1.5. Таълимнинг иккинчи босқичи мазмуни

Таълимнинг иҳкинчи босқичида "Хорижий тил" фанининг ўқув-тарбиявий вазифалари нофилологик олий ўқув юртида хорижий тилни ўқитиш хусусиятларига боғлиқ методик тамойиллар асосида амалга оширилади.

Таълимнинг иккинчи босқичи вазифалари:

Илмий-техник ва илмий-оммабоп матнларни уларда мужассам ахборотни тўлиқ ва аниқ тушуниш (ўрганиш мутолааси) ва уларнинг мазмуни билан танишиш (танишув мутолааси) мақсадида ўқишга ўргатиш:

- гапириш ва эшитиш, шу билан бирга босқичнинг (ўқув вазифалари доирасида) ёзув кўникмаларини такомиллаштириш;
- хорижий тилни амалий қўллаш учун зарур бўлган фаолият турларини эгаллаш учун лозим бўлган билим ва кўникмаларни шакллантириш (матн маъносини ўзлаштириш; нутқнинг асосий ғоясини ажратиб олиш; асосий ва иккинчи даражали ахборотни ажратиш; илмий-техник матнни ёзма таржима қилиш; матн режаси ва мавзу бўйича маъруза режасини тузиш);
- олий ўқув юрти (факультет)нинг кенг йўналиши бўйича оригинал илмий-техник матнлар устида талабанинг мустақил ишлаш кўникмаларини такомиллаштириш.

Ўқув фаолиятининг мазмуни:

- аудиторияда ўрганилаётган тилдаги матн билан ишлаш: матнни овоз чиқариб ўқиш (ўқиш техникасини такомиллаштириш); матнни оғзаки таржима қилиш (тушунишни назорат қилиш); матнни овоз чиқармай ўқиш ва мазмунини она тили ёки хорижий тилда оғзаки баён қилиш; матнни ўрганиш мақсадида ўқиш; матнни тушунишга ҳалал берувчи тил ҳодисаларини таҳлил қилиш; матннинг маънавий мазмунини тахлил қилиш ва янгиликлар элементлари, асосий ва иккинчи даражали ахборотларни аниқлаш; таркибида муҳим ахборот мавжуд бўлган матн парчаларини ёзма таржима қилиш; ўрганилаётган матн бўйича назорат машқлари (фонетик, лексик, сўз ясаш, грамма-тик, 15-20 минут ичида матн асосида 500-600 босма белги ҳажмида ёзма таржима);
- аудитория машғулотларида гапириш ва эшитиш; матнга қарамай фоноёзувда 1-3 марта тингланган матннинг умумий мазмуни ёки қисмини сўзлаш;
- ишлаб чиқариш жараёнига яқинлаштирилган шароитда

(масалан, суҳбат мотивини автомобил, унинг конструкцияси, қисмлар ва кесимлар тасвири таъминлайди) гапириш ва эшитиш кўникмаларини такомиллаштириш бўйича машғулотлар олиб бориш; ўқилган ва ўрганилган матн бўйича хабар режасини тузиш ва хабарни тайёрлаш; таълимнинг биринчи босқичининг ижтимоий-сиёсий мавзуларини ҳар бир мавзу бўйича оғзаки хабар ёки суҳбат шаклида такрорлаш;

- ҳар ҳафтада шартли ҳажми 1500-2000 босма белгидан иборат 2-3 бет матнни мустақил аудиториядан ташқари ўқитиш (2-3 семестрларда 150-200 минг босма белгидан иборат матн).

Ўқув материалинииг характери:

- ўқув машғулотларида таништириш ва ўрганиш мутолаасини ўргатиш учун мавжуд дарслик ва ўқув қўлланмалари ёки кафедра ўқитувчилари тайёрлаган қўлланмалар (ЎМК қарорига кўра) матнларидан фойдаланилади. Дарсларнинг асосий матнлари талабаларнинг грамматик, лексик ва сўз ясаш минимумини ўзлаштиришга кўмаклашувчи матн олди ва матндан кейиИги машқлар билан бойитилган бўлиши лозим. Аудитория машғулотларида фойдаланиладиган оригинал матнлар матндаги саволлар бўйича тайёргарлиги бўлмаган ўқувчига мўлжалланган ўқув-оммабоп адабиётлардан танланган бўлиши лозим. Бундай матнлар бўлажак мутахассис ёки ўқувчининг дунёқараши ва эрудициясини кенгайтириш учун хизмат қилиши, ахборот билан таъминлаши ва сезиларли даражада махсус фанларни ўрганиш билан боғлиқ қийинчиликларни камайтириши лозим; мавзувий ўқув матнлари олий ўқув юртида мутахассислар тайёрлашнинг асосий йўналишларини ўзида акс эттириши лозим.

- гапириш ва эшитишга ўргатиш учун ишлатиладиган ўқув материаллари сўзлашув мазмунини ифодаловчи дастлабки ахборотларни ўзида мужассам этиши лозим; гапириш ва эшитишга ўргатиш учун дарсларнинг асосий матнлари ва уларнинг фоноёзувлари, "Оғзаки нутқ кўникмаларини ўстириши бўйича амалий машғулотларга услубий кўрсатмалар" ва нашр режаси бўйича яратилган бошқа материаллардан фойдаланиш мумкин.

- аудиториядан ташқари мустақил мутолаа учун мавжуд ўқув қўлланмалари, ўқиш китоблари шу билан бирга кафедра

ўқитувчилари тайёрланган ўқув қўлланмалари ва адабиётларидан фойдаланиш мумкин; уй мутолааси учун матн танлашда оригинал ўқув ва илмий-оммабоп адабиётдан фойдаланиш зарур.

1.6. Таълимнинг учинчи босқичи мазмуни

Таълимнинг учинчи босқичи хусусиятлари шундан иборатки, бу босқичда касбий фаолиятнинг бошқа турларига ўргатиш ва хорижий тил бўйича шу пайтгача олган билимлари, ҳосил қилган кўникмаларини амалда қўллашга ўргатилади (5-6 семестрлар).

Таълимнинг учинчи босқичи вазифалари:

- танишув ва ўрганиш мутолааси кўникмаларини такомиллаштириш, ахборот излашни ўргатиш (мутахассислик бўиича илмий-техник журналлар тавсифи), шу билан бирга назардан ўтказиш ва излаш мутолаасига ўргатиш;
- таълимнинг 2-босқичида хорижий тил бўйича эгалланган билим ва кўникмаларни қўллаган ҳолда касбий фаолиятнинг турларига ўргатиш; аннотация ва рефератларга ўргатиш; мутахассислик бўйича ўқилган хорижий адабиётлар асосида маъруза ва шархлар тайёрлашга ўргатиш;
- ижтимоий-сиёсий ва касбий мавзу асосида гапириш ва эшитиш кўникмаларини такомиллаштириш;
- ахборот излаш, ёзма таржима, аннотациялаш ва реферат тайёрлаш кўникмаларини такомиллаштириш.

Ўқув фаолиятининг мазмуни:

- аудиторияда ўрганилаётган тилдаги илмий-техник матн устида ишлаш; матнни овоз чиқариб ўқиш ва оғзаки таржима; танишув, ўрганиш, назардан ўтказиш мутолааси, ўқув материалларини излаш мутолааси; 20-30 минут мобайнида 1200 босма белги ҳажмидаги матн парчасини ёзма таржима қилиш ва бунда махсус соҳа луғати ва маълумотномадан фойдаланиш; ўқитувчи раҳбарлигида мутахассислик бўйича оригинал матнни аннотациялаш ва реферат ёзиш;
- аудитория машғулотларида гапириш ва эшитиш; ўтилган ижтимоий-сиёсий мавзуларни такрорлаш; мутахассислик бўйича ўқилган материал бўйича ахборот билан чиқиш; ўрганилаётган тилда ўқилганлар бўйича суҳбат ва муҳокама (таълимий ўйинлар);

- ҳафтасига ҳар бир бетнинг шартли ҳажми 1500 босма бел-ги бўлган 3 бет матнни аудиториядан ташқари мустақил ўқиш.

Ўқув материалларининг характери:

- ўқув машғулотларида мутахассислик бўйича илмий-техник матн устида ишлаш учун (таништирув, ўрганиш, излаш ва назардан ўтказиш мутолааси, ёзма таржималар, аннотациялаш ва реферат ёзиш) хорижий илмий-техник журналлар мақолалари, симпозиум ва конференцияларнинг материаллари, шу билан бирга техник ҳужжатлар (фойдаланиш, таъмирлаш ва техник хизмат кўрсатиш бўйича йўриқномалар, маҳсулот паспорти ва ҳ.к.).

1.7. Ёзув

Ёзувлик ўргатишнинг вазифаси бутун давр мобайнида ўқув вазифаларини бажариш учун қўшимча восита сифатида фойдаланишдан иборат.

Ёзувни ўрганганлик талаблари тегишли ўқув вазифаларини бошқаришда актив минимум таркибига кирувчи сўзлар, сўз бирикмаларини инглиз, француз, немис тилларида тўғри ёза олиш;

Ўқилган матннинг мазмунини қисқача ёзма равишда баён қилиш. Ўқув материали ўрганилган матнлар ва нутқ намуналарини ўз ичига олади.

1.8. Инглиз тили бўиича сўз ясаш ва грамматик минимум

Таълимнинг биринчи босқичи.

Сўз ясаш минимуми. Талаба янги нутқий шаклларда ўрганилаётган сўз ясаш моделлар бўйича ясалган мураккаб сўз ва нотаниш ясама сўзларнинг маъноларини мустақил аниқлай олиш лозим. Қуйидаги сўз ясаш моделларини такрорлаш лозим: v+er=n. двигател белгиси rto design - лойиҳалаш -designer - лойиҳачиғ; adj+ness=n (hard - қаҳрли - hardness -қаҳрлилик); v+ing=n (to varn - огоҳлантирмоқ, varning -огохлантириш); nXful=adj (pover - куч, powerful - бақувват); adj+ish=adj (damp - нам, dampish - намчил) adj+ly=adv (firm -қаттиқ - Firmly - қаттиқ); un+adj=adj (important - муҳим, unimportant - номуҳим).

Олдин талабалар ўрганган қуйидаги сўз ясаш моделлари ҳам ўзлаштирилиши зарур. V+er=n тузилишидаги ишлаб чиқариш қуроли, асбоб, қурилма ва ҳ.к. ни билдиради (to heat - иситиш - heater - иситгич); v+able=adj (to drink - ичмоқ - drinkable - ичиладйган); adj+ire=v Fcircual - думалоқ, circulire - думалоқлаш, adj+en=v (fast - қаттиқ - to fasten - KaTTHjyiaHnm);dis+v=v (to approve - маъқуллаш - to disapprove - маъқулламаслйк); n+n=n \a steam pipe - буғ қувуриғ; конверсия бўйича мослаштирилган ва рус тилида мунтазам тузилиш - семантйк мосликка эга феъллар.

Грамматик минимум (ўқиш) Грамматик кўникмаларни такомиллаштириш ва намунавий дастурга киритилган грамматик ҳодисаларни билишни умумлаштириш, айнан;

От. Отнинг формал белгилари ва уни матнда аниқлаш; сон белгилари; нол суффикс; -S, es суффикслари. Отнинг кўплик шакли белгилари; от келишиклари. Нол суффикс умумий келишиқ кўрсаткичи сифатида; -S суффикси эгалик келишининг кўрсаткичи сифатида; Аниқловчилар отнинг кўрсаткичи сифатида; артикллар, эгалик олмошлари, кўрсатиш олмошлар; гумон олмошлари; предлог отнинг кўрсаткичи сифатида; on, by, of, with, to ва ҳ.к.

Ўнг ва сўл аниқловчи тушунчаси (a town park the of the town). Отнинг ўзаги сўл аниқловчи вазифасида. Ўзакда грамматик белгиларнинг мавжуд эмаслиги. Сўл аниқловчилар занжири (the main assembly line conveyor control system).

Артикллар отнинг кўрсаткичи сифатида; таснифловчи артикл ва унинг вазифалари; ағап артиклининг бирлик сонда саналувчи отлар билан мос келиши ва нол артиклнинг кўплик сонда саналувчи отлар билан мослашиши. The индивидуаллаштирувчи артикли ва унинг вазифалари. Айрим атоқли отлар олдидан келувчи аниқ (индивидуал) артикл (the Uzbek Republic).

Сифат. Қиёсий даража белгилари; сифатларнинг қиёсий даражаси; good, bad, little, much, many. Сифат кўрсаткичлари сўл аниқловчи ва кесимнинг от қисми вазифаларида.

Олмош. Кишининг олмошларининг бош келишиги эганинг белгиси сифатида. Объект келишигидан кишилик олмошари (предлогсиз) воситасиз тўлдирувчининг белгиси сифатида. This (these), that (those) олмошлари. Боғлиқ ва абсолют шаклдаги эгалик олмошлари. Any, some, no, each, every, other, another олмошлари.

One сўроқ олмоши отнинг вазифадоши сифатида. One, it олмошларининг кўп маънолилиги. Somebody, something мураккаб олмошлари. Self суффиксли олмошлар.

Феъл. Шахсли ва шахссиз шакллари. Луғат шаклига келтириш. Ўтимли ва ўтимсиз феъллар. Шахсли шакллар кесимлик белгиси сифатида. Феълнинг содца, замон шакллари кўрсаткичи ва бу шаклларнинг аниқ нисбатдаги маънолари. Содда ҳозирги замон - Simple Present. Қарама-қарши суффикслар қоидаси. Does ёрдамчи феълли шакллар. Воситасиз тўлдирувчи феъллик кўрсаткичи сифатида. Содда ўтган замон - Simple Past. Стандарт ва ностандарт феъл-ларнинг асосий шакллари. Содда келаси замон - Simple Future.

Present Past Continuous шакллари ва маъно белгилари. To be going инифинитив конструкцияси. Ҳозирги замон перфектли Present Perfest. Ўтган замон перфектли Past Perfect. Мажҳул нисбат Passive Voice. Can, May, must модал феъллари ва уларнинг эквивалентлари. Феълнинг инфинитив, герундий, 1-2 сифатдош (содда шакллари) каби шаҳссиз шаклларининг белги ва маънолари. Ing ва ed суффиксли шаклларнинг омонимияси. Буйруқ майли.

Синтаксис. Ўқиш учун грамматик ҳодисаларнинг қуйидаги белгиларини билиш ва фарқлай олишни ўстириш назарда тутилади; ran қурилиши белгиларини уни автомат тарзда қабул қилиш даражасида билиш. Гап бўлакларининг нисбий жойлашуви: эгадан олдин келувчи ҳол гуруҳи (1); кесим гуруҳи (2); тўлдирувчи гуруҳи (3); гапни тугалловчи ҳол гуруҳи (4). Гапнинг умумий тузилиш шакли. Эргаш гапларнинг маъно белгилари (тўлдирувчи, аниқловчи ва шарт эргаш гаплар).

Грамматик минимум **(оғзаки нутқ).** Қуйидагиларни такрорлаш лозим: содда, дарак, тасдиқ ва инкор гаплар; саволларнинг асосий гаплари; шахсли ва шахссиз гаплар; can, may, must модал феъллари. Бу грамматик тузилмалар нутқда авто-мат тарзда ишлатилиши ва эшитиб қабул қилиниши лозим.

Нутқни эшитиб тушуниш ва фикрни баён қила олиш учун талаба артикл ва аниқловчиларни таниши ва қўллай олиши лозим; отларнинг сон шакли; отлар грамматик муносабатлари-нинг предлогли ва предлогсиз ифодаланиши;* сифат ва равишнинг қиёсий даражаси; тартиб сонлар; кишилик ва эгалик олмошлари шакллари; Simple Present,

Simple Past, Simple Future, Present Continuous (Active), Present Perfect (Active), герундийнинг содда шакли ҳам шулар жумласидандир.

Таълимнинг иккинчи босқичи.

Сўз ясаш минимуми. Талаба қуйидаги сўз ясаш моделларини билиши ва улар асосида нотаниш ясама сўзларнинг қонуний маъносини мустақил англай олиши лозим; adj+ity=n (acid-нордон - acidity - нордонлик); v+ment=n (to treat - ишлов бермоқ - treatment - ишлов); v+age=n (to break - синдирмоқ, brekage - синиш); an+y=adj (grain - дон - grainy - донли); n+ed=adj (motor - мотор -motored - мотор қўйилган); n+al=adj Fcoast veper - coastal -қирғоққа тегишлиғ; v+ent=adj\to differ - фарқланмоқ -different — фареди\; adj+iry=v - humid - намли - to humidify -намламоқ (n+ate-v (fraction - фракция to fractinate - моддани алоҳида фракцияларга бўлмоқ \n+ize=v (rubber -резина to tubberize - резиналаш); d+v=v (to cluteh - уламоқ; to declutch -узмоқ); re+v=v (to colour - бўямоқ - to recolour - янги рангга бўямоқ); over+v=v (to heat - .иситмоқ - to overheat - қайта иситмоқ); en+adj=v -large - катта to enlarge - катталаштирмоқ; en+n=v (circle - доира - to. encircle - доирага олмоқ); n+n=v (a boiler - room қозонхона); adj+n=n (a loid - speaker - овозни баландлатувчи мосламалар); adj+adj=adj Fdark-blue-ЗаНгорН\; n+adj=adj (heat-stable-иссиқликка чидамли; рус тилида мунтазам структурал-семантик мосликка эга бўлмаган феъл ва отлар конверсияси.

Грамматик минимум. Минимумга грамматик шаклларнинг қуйидаги белги ва маънолари киради. that (those) + ўнг аниқловчи сўз бирикмасида that (those) отнинг ифодаловчиси сифатида; there more . . . the better жуфт боғловчилари, жуфт боғловчилар ва the артикли омонимиясини фарқлаш; one эга қатнашган ноаниқ шахсли гаплар; one эганинг- омонимиясини фарқлаш; киритувчи феъллар (see, hear, knowj want, etc) the device to be tested типидаги феълли конструкциялар кўрсаткичи сифатида; мураккаб эга ва инфинитивни киритувчи (is said; is known; is seen) типидаги элемент (this ship is said to arrive soon) ва бу конструкциянинг маъноси; ўнг аниқловчи вазифасида инфинитив белгилари ва унинг must, can, to be, to have, to -, should модал феълларидан кейинги содда перфект шаклидаги инфинитивдаги маъноси; герундий ва і-сифатдошнинг содда

ва мураккаб шакллари, уларнинг гапдаги маъноси ва уларнинг бошқа сўз туркумлари билан бирикиши; мураккаб шахссиз феълларга нисбатан қўлланилувчи суффиксли грамматик шакллар ва омонимияни фарқяаш.

Таълимнинг учинчи босқичи.

Сўз ясаш минимуми. Биринчи ва иккинчи босқич учун кўрсатилган минимумга қўшимча сифатида талаба сўз ясовчи морфемалар ва ўз соҳаси тили учун хос бўлган, айниқса, атамалар яратиш бўйича зарур бўлган моделларни ўзлаштириши лозим.

Грамматик минимум. Учинчи босқичда биринчи ва иккинчи босқичда кўрсатилган ҳодисаларни нутқда янада такомиллаштириш, шу билан бирга талабаларни яхлит матнни боғлаш учун зарур бўлган грамматик ва семантик воситалар билан таништириш назарда тутилади. Муаллиф фикрининг мантиқий-фикрий жиҳатдан ўзгаришларини ифодаловчи лексик ва грамматик бирликлар (матн ҳосил қилувчи воситалар)га алоҳида эътибор берилади (ёрдамчи сўзлар, фикрнинг бошланиши ва тугалланишини билдирувчи сўз ва сўз бирикмалари - to begin with, in conclusion etc: фикрни баён қилиш жараёнида далилларни санаш ва қўшишни билдирувчи сўз ва бирикмалари - in addition to, furthermore).

1.9. Немис тили бўйича сўз ясаш ва грамматик минимум

Таълимнинг биринчи босқичи.

Сўз ясаш минимуми. Ушбу босқичда талаба учун номаълум бўлган содда ва мураккаб ясама сўзларнинг маъносини мустақил ўзлаштира олишни ривожлантириш назарда тутилади. Қуйидаги сўз ясаш моделларини ўзлаштириш лозим; ver+SV+er-Verbrancher(m), Verstaker(m), SA+keit-Sehwierigkeit (0, SA_e-Warme(f), SN+LOS-restlos, SV+ung-Losung(0, un+Saunmoglich, SN+SN=Wasserstoff(m).

Сўз ясашнинг қуйидаги моделлари ҳам ўзлаштирилиши лозим; SV+sam=wirksam, SN+S+SN-Arbeitsgang, ein+sv-einsetzen, SV+Bar-nutsbar, SV+lich-erfozderlich, leben-das Leben.

Грамматик минимум (ўқиш). Биринчи босқичда мазкур дастурнинг бошловчилар учун мўлжалланган бўлимида кўрсатилган грамматик кўникмалар ва грамматик ҳодисалар

бўйича билимларини сайқаллаш назарда тутилади. Ўрта мактаб курсида ўқувчиларга таниш бўлган ҳодисалар олий ўқув курсида вазифавий йўналишга эга бўлади. Шунинг учун маркер белгиси билан муайян грамматик ҳодисалар ажратилиши лозим. Тегишли шаклланган махсус ўқув ҳаракатлари ва операциялари.

Биринчи босқичда мактаб курсига қўшимча, ўқитиладиган грамматик минимум таркибига эргаш гаплар шу жумладан, боғловчисиз эргашган боғловчили ва боғловчисиз боғланиш белгилари, ажратилган гаплар, шахсли феъллар маънолари ва белгилари киради. Булар: Prasens, Imperfekt, Futurum. Plusguamperfekt.

Грамматик минимум (гапириш). Содда дарак (тасдиқ ва инкор) гаплар, саволларнинг асосий турлари, шахсли ва шахссиз гаплар, konnen, mussen, sollen, wollen, mogen каби модал феълларни такрорлаш назарда тутилади.

Мазкур грамматик тузилмалар нутқда автоматизм даражасида бажарилиши ва эшитиб тушунилиши лозим.

Фикрни ифодалаш ва эшитиб тушуниш учун талаба шу билан бирга турли артикллар, отларнинг сон шакллари, отларнинг грамматик муносабатларини предлогли ва предлогсиз ифодалаш, сифат ва равишнинг қиёсий даражаси, тартиб сонлар, кишилик ва эгалик олмошлари шакллари, Prasens, Imperfekt, Perfekt, Futurum, Aktiv феъл шакллари каби аниғутовчиларни таний олиш ва қўллай олиши лозим.

Таълимнинг иккинчи босқичи.

Сўз ясаш минимуми. Талаба қуйидаги асосий сўз ясаш моделларини ўзлаштириши ва улар асосида нотаниш ясама ва мураккаб сўзларнинг қонуний маъноларини тушуниши лозим: uber+SN-Ubertemperatur(f), vor+SN-Vorstufe(0, nach+SN-Nacharbeit(f), ab+SN-Abvarm(f), SA+sehaft-Eigenschaft(O, er+SN (erzielen), ver+SV (verarbeiten), er+SA (erleichtern), B+SN+ig (beseitigen), durch+SV(Durchfiihzen), ver+SA+ig (verunreinigen), umXSV (umlaufen), zusammen+SV (Zusammenfallen), zer+SN (zersplit tern), wieder+SN (Wiedergeben), entFemp (entwickeln), (empfangen), SV+sam (bedentsam), SN+fest (sanrefest), SV+formig (ringformig), SN+Sicher (berticbssicher), SV+Wert (wunschens wert), SN+ahnlich (wasserahnlich), SN+dich+(luftdicht).

Грамматик минимум (ўқиш). Иккинчи босқичда грам-матик минимумга қуйидаги грамматик шаклларнинг белги ва

маънолари киради. 1 ва 2 актив ва пассив инфинитиви; боғлиқ инфинитив гуруҳ, унинг гапдаги ўрни; таржима тартиби; модал феълли инфинитив ва lassen феъли билан қўлланиши; um, Statt, ohne боғловчилари; haben+zu+ инфинитив 1, sein+zu+инфинитив 1 модал қонструкция-ларнинг ўзига хос белгилари, уларнинг таржимаси ва уларга синоним бўлган лексик-грамматик воситалар; ёйиқ аниқловчининг белгилари, гапда уни аниқлаш; аниқловчи отлар (нартацин билан ифодаланган содда ва ёйиқ, олдин келувчи юклама билан, содда (презенс, претерит) ва мураккаб (перфжт, плюсквам перфект) конъюнктив феъл шакллари.

Грамматик минимум (сўзлаш). Асосан, биринчи босқич учун кўрсатилган материал, шу билан бирга эргаш гаплар (тўлдирувчи, аниқловчи, ҳол ва истак майлидаги шарт эргаш гаплар), мажҳул нисбатдаги Prasens, Imperfekt ва инфинитив ҳол вазифасида, I-сифатдошнинг аниқловчи ва ҳол вазифаси; боғловчили эргаш гаплар.

Та ьлимнинг 3-босқичи.

Сўз ясаш минимуми. 1 ва 2-босқичда кўрсатилган мини-мумгп қўшимча равишда талаба ўрганилган соҳа тили, асосан, атамашунослиги учун хос бўлган сўз ясовчи морфема ва моделларни ўзлаштириши лозим.

Грамматик мипимум. 1-2-босқичларда ҳосил бўлган кўникмаларни такомиллаштириш, шу билан бирга матн боғланишининг грамматик ва семантик воситалари билан таништириш назарда тутилади.

1.10. Француз тили бўйича сўз ясаш ва грамматик минимум. Таълимнинг биринчи босқичи

Сўз ясаш минимуми. Талаба янги нутқий ҳолатларда ўрганиааётган сўз ясаш моделлари асосида ясалган нотаниш ясама ва мураккаб сўзларнинг маъносини мустақил англай ола билиши лозим. Қуйидаги сўз ясаш моделлари такрорланиши назарда тутилади;

1. Отлар: v+tion (ation, isation, ification); v+age; v+ment; v+adc; v+ance; v+eur (euse), v+oir, adj+eur, adj+esse, adj+ade, adj+ise adj+te, n+ier, n+aire, n+ade, n+et(ette), n+elet (elette), n+ite, avant+n, anti+n, pre+n, post+n, contre+n, co+n, trens+n, sur, in-t n, dis+n.

2. Сифатлар: v+able, v+ible, n+atre, n+al (ale), n+eux (euse), n+ier, avant+adj, sur+adj, ante (anti)+adj, pre+adj, arriere+adj, aples+adj, contre+adj, super+adj, sur+adj, in+adj,dis+adj, a+adj.

3.Феъллар: n+er, adj+er, v+er, re+v, enter+v, a+v, e+v, en(em)+v, de+v,-ex+v, sur+v.

4. Равишлар: adj+ment.

Грамматик минимум **(ўқиш).** Намунавий дастурга киритилган грамматик ҳодисалар бўйича билимлар ҳажми ва фамматик кўникмаларни такомиллаштириш назарда тутилади. Хусусан:

От. Отнинг шаклий белгилари ва уни матнда таниш; сон ва жинс белгилари; кўплик шаклдаги отни луғат шаклига келтириш; аниқпик, ноаниқлик, хусусий ва яхлит артикллар отнинг белгилари сифатида.

Сифат. Сифатнинг шаклий белгилари ва уни матнда таниш; сон ва жинс белгилари; қиёсий даража белгилари; bon, manvais, petit сифатларининг қиёсий даражаси. Сифатларни луғат шаклига келтириш; кесимнинг от қисми ва аниқловчи вазифасидаги сифатнинг белгилари.

Равиш. Равишнинг қиёсий даражаси.

Олмош. Кишилик олмошлари; кўрсатиш олмошлари ва уларни отнинг сон ва жинс категорияси билан мослаштириш; ноаниқ-кишилик олимошлари; шахссиз олмош шахссиз гапларнинг белгиси сифатида; ноаниқ олмошлар.

Феъл. avoir ва etre феъллари асосий ва ёрдамчи феъл сифатида; шахс шакллари кесим белгиси сифатида; present, imperfait, futur simple, passe simple замон гуруҳидаги феълларнинг белгиси ва бу шаклларнинг аниқ ва мажҳул нисбатдаги маъноси; 1,2,3-гуруҳ феълларининг суффикФйл белгилари; Passe Compose мураккаб ўтган замон шаклининг аниқ ва мажҳул нисбати; ўтимли ва ўтимсиз феъллар; қуйидаги феъл шаклларининг белги ва маънолари: инфинитив, сифатдош, равишдош, ҳозирги ва ўтган замон; олмошли феъллар.

Синтаксис. Ўқиш кўникмасига эга бўлиш учун грамматик ҳодисаларнинг қуйидаги белгиларини билиш ва фарқ қилиш, ўқиш жараёнида ва матнни қайта ишлашда ҳодиса шаклларини маъноси билан қиёслаш лозим. Тузилма сўзлар (предлоглар, артикллар) белгиси, ran қурилиши белгиларини тезкор қабул қилиш даражасида эгаллаш. Ҳар бир ran

бўлагининг нисбий жойлашуви: ҳол гурухи (0) эга гуруҳи (1), кесим гуруҳи (2), тўлдирувчи гурухи (3), гапни якунловчи ҳол гуруҳи (4); содда ва мураккаб ran; бош ва эргаш ran; эргаш гапнинг белгилари ва маънолари (тўлдирувчи, аниқловчи, шарт эргаш гаплар); боғловчили ва боғловчисиз тобеланиш белгилари. C'est . . . gui (gue) ажратувчи конструкциялар бирлик ва кўпликда пе . . . gne чеклаш обороти.

Грамматик минимум (сўзлаш). Қуйидагиларни такрорлаш лозим: содда дарак гаплар (тасдиқ ва инкор) саволларнинг асосий типлари; шахсли ва шахссиз гаплар; модал феъллар; буйруқ майли, шу билан бирга il уа, c'est конструкциялари ва on ноаниқ-кишилик олмоши қатнашган гаплар.

Нутқни эшитиб тушуниш ва фикрни ифодалаш учун талаба артикллар ва отнинг сон ва жинс шаклини аниқловчи воситаларни билиши ва қўллай олиши лозим; отнинг грамматик муносабатларини предлогли ифодалаш; сифат ва равишларнинг қиёсий даражаси; тартиб сонлар; кишилик, эгалик, кўрсатиш, сўроқ олмошлари, Present, Passe Compose, Future simple, Imparfait, Passe simple шаклидаги феъллар.

Таълимнинг иккинчи босқичи.

Сўз ясаш минимуми. Талаба сўз ясаш моделларини ўзлаштириб олиши ва улар асосида конверсия йўли билан ясалган нотаниш ясама ва мураккаб сўзларнинг ва сўз бирикмаларининг маъноларини мустақил очиб бериши лозим.

Суффиксал сўз ясалиши: 1. Сўз ясаш қатори:

- ation\-ateur\-atrice, -ifier\-ification\-ificateur\-ificatrice.
- Iser\-isation\-isateur\-isatrice er (-,
- Er\age\-eur\-euse,
- Ion\-eur(m)
- igue\-icien.

2. Суффикслар - отларга хос: -aine, -ite, eur (f), -erie;

Сифатларга хос: -eux (-euse), if(-ive), -ais(-aise), -el(elle);

равишга хос: -ment.

Префиксал сўз ясалиши; co-, -entre-, inter-, non-, in-(il-, im-, ir-) sous-, sur-, super-, ex-, re-, ва бошқалар.

Суффиксал - префиксал сўз ясалиши: а+отли асос + -ir, lune-»aluniz.

Лотин-юнон унсурларидан фойдаланиб мураккаб сўз ясаш; photolecteuc (m), telemesure(f), V+N модели бўйича тузилган мураккаб сўзлар; porteavions.

Терминологик сўз бирикмаларининг асосий моделлари:

N+prep+N, machine de caicul, chargouse a goder

N+adj machine calculatrice, machine chargeuse,

N+a+v, machine a calculer, machine a charger,

N+Nj machine standart, parti frire

Регрессив сўз ясаш:

Attaguer—»attague(f), calculer—>calcul(m), rendre—»rente(f), vendre—»vente(f)

Конверсия: la machine chargeuse, —> la chrgeuse$ le circuit ET-»Le ET. Аббревиатуралар (тилган мавзулар доирасида)

Грамматик минимум (ўқиш). Минимумга қуйидаги грамматик шакллар белгилари ва маънолари киради: отнинг формал белгилари; отнинг омонимик суффикси ва ent феълини фарқлаш; аниқловчи ва кесимнинг от қисми вазифасидаги сифатнинг белгилари; кишилик, гумон шахссиз олмошлар ва феълнинг шахссиз шакли; шахссиз феълнинг белги ва маъноси; инфинитив, ўтган ва ҳозирги замон сифатдоши, равишдош. Истак майлидаги кесимли эргаш гапларни қўллаш ва аниқлаш усуллари (тўлдирувчи, аниқловчи, шарт эргаш гаплари). Present, Passe compose, Future simple шаклидаги мажҳул нисбат боғловчили эргаш гаплар, аниқловчи вазифасидаги сифатдош.

Грамматик минимум **(сўзлаш**). Таълимнинг I босқичида ўрганилган материалга қуйидагилар қушилади: истак майлидаги кесимли эргаш гаплар (тўлдирувчи, аншуювчи, ҳол ва шарт)ни нутқда қўллаш ва аниқлаш усуллари; Present, Passe compose, Future simple шаклидаги машҳул нисбат; боғловчили эргаш гаплар, аниқловчи вазифасидаги сифатдош.

Таълимнинг 3-босқичи.

Сўз ясаш минимуми. Биринчи ва иккинчи босқич минимумига қўшимча сифатида талаба сўз ясовчи морфемалар ва ихтисослик тили, айниқса, атамалар ясаш соҳаси учун хос бўлган моделларни ўзлаштириши лозим.

N+prep+Nj, mine de hoille a grison, memoire a disgues.

N+adj, machine chargeuse, machine calculatrice. Предлогсиз терминологик сўз бирикмалари.

N+N|, camion-benne, rendement-posete, language machine, carrote-temoin.

Талаба конверсия йўли билан ясалган сўзларнинг маъносини мустақил тушуниши, (la machine chardeuse - la

chargeuse, ET->le ET) шу билан бирга аббревиатураларни (ўтилган мавзулар доирасида) билиши лозим.

Грамматик минимум. Таълимнинг учинчи (юқичида 1 ва 2-босқичда кўрсатилган ҳодисаларни автоматик даражасида қўллаш назарда тутилади. Шу билан бирга талабаларни грамматик ва семантик воситалар билан таништириш кўзда тутилади. Муаллиф фикрининг мантиқий-фикрий бурилиш-ларини билдирувчи лексик ва грамматик бирликларга алоҳида эътибор берилади. (фикрнинг бошланиши ёки якунланишини билдирувчи ёрдамчи сўзлар ва сўз бирикмалари) en fonction de, du fait de, compte tenu de, ce gui concerne, en vue de, grace a, etant donni gue, d'une part ... d'autre ete.

1.11. Хорижий тилни ўрганишни бошловчи талабаларни ўқитишнинг хусусиятлари

Кўп талабалар турли сабабларга кўра хорижий тилни олий ўқув юртига киргач, ўргана бошлайдилар. Хорижий тиллар бўйича амалдаги дастурларга кўра бундай т;шабалар учун махсус гурухлар тузилиб, уларга қўшимча таълимнинг дастлабки босқичи назарда тутилган.

68 соатга мўлжалланган таълимнинг дастлабки босқичи вазифаси бошловчилар гуруҳларини таълимнинг биринчи босқичига тайёрлашдан иборат. Талабаларнинг катта қисми мазкур гуруҳга тайёрлов бўлимидан ўтишини ҳисобга олган ҳолда хорижий тиллар бўйича машғулотларни ташкил этиш алоҳида аҳамият касб этади. Етарли савияда ташкил этилган машғулотлар бошловчилар гуруҳини 1 курсдаёқ тугатиш имконини беради. Шунинг учун тайёрлов бўлимларида ўқитиш биринчи кунларданоқ бошланғич босқич дастури бўйича ташкил этилиши лозим.

Бошланғич босқич вазифалари:

- талабаларни ўқув матнларини луғатсиз ўқиш ва тушунишга ўргатиш;
- талабаларни адаптациялаштирилган матнларни луғат билан ўқиш ва тушунишга ўргатиш;
- талабаларни ўқув материали асосида қурилган ибораларни эшитиб тушунишга ўргатиш;

- талабаларни савол бериш, саволларга жавоб бериш ва қисқа чиқишларга тайёрлаш.

Уқув материалининг тавсифя:

- таълимнинг I босқичи мавзулари бўйича фонетик, лексик ва грамматик машқлар билан бойитилган (800-1000 босма белги) соддалаштирилган матнлар.
- талабалар ҳаёти ва ўқиши билан боғлиқ бўлган монологик ва диалогик нутқпар учун материаллар.

Ўқиш мезонлари:

- ўрганилган тил товушларини автоматизм даражасида талаффуз қила олиш;
- барча ҳарф-товуш мослигини автоматизм даражасида билиш;
- пауза меъёрлари ва жумланинг оҳангдорлилик бўёғига риоя қилган ҳолда ўқиш техникасини эгаллаш;
- 500 сўз ва сўз бирикмасидан иборат лексик минимум, шу билан бирга амалдаги дастурга мувофиқ сўз ясаш ва грамматик минимумга эга бўлиш.

2. Ўқиганлик мезонлари ва ўқилган материални ўзлаштиришнинг назорат шакллари

2.1. Таълимнинг биринчи босқичи

Таълимнинг биринчи босқичи охирида ўқиганлик мезони:

- лексик минимум мактабда ўрганилганлари билан бирга 800-1000 сўз ва сўз бирикмаларини ташкил қилиши лозим. Бу миқдорга потенциал сўз бойлиги (байналминал сўзлар, ўргачилган сўз ясаш моделлари асосидаги ясама ва мураккаб сўзлар) кирмайди;
- ижтимоий-сиёсий матнларни ўқиш ва тўла мазмунини тушуна олиш (минимумга 180-200 босма белгини ўқиш тезлигида луғат ёрдамида 45 минут ичида 1000-1200 босма белгисини ўқиш) ва умумий 'мазмуний тушунча олиш (минутига 440-450 босма белгини ўқиш, луғатсиз 3-4 нотаниш сўз бўлган ҳолда 2000 босма белгили матн мазмунини тушуниш);
- бевосита мулоқот ва фоноёзув воситасида ўрганилган ижтимоий-сиёсий мавзу бўйича нутқни тушуниш (минутига 150-200 бўғин талаффузи тезлигида 3 минутга овоз эшиттирилиши);

танишув мутолааси (матн ҳажми 3000 босма белги), минутига 1000 босма белги тезлигида кўз югуртиш;

- хорижий илмий-техник манбалардан ахборот излаб олиш ва уни оғзаки (маъруза, ахборот) ва ёзма (таржима, аннотация, реферат) шаклда бера олиш;
- ахборот билан чиқа олиш, махсус мавзу бўйича аввал ўқилган адабиёт бўйича суҳбат ва муҳокамада иштирок этиш;
- ўтилган ижтимоий-сиёсий мавзу бўйича ўрганилган тилда ахборот тайёрла олиш.

Ўтилган материални ўзлаштиришни назорат қилиш шакллари:

- ёзма таржима бўйича индивидуал машқларнинг бажарилиши, илмий-техник мақолалар аннотацияси ва мутгхассислик бўйича техник ҳужжатчиликни текшириш;
- тармоқ луғатларидан фойдаланган ҳолда аудиторияда 30 минутда 100 босма белги ҳаммада ёзма таржима бажариш (ойда бир марта);
- ахборотлар билан қатнашиш ва ижтимоий-сиёсий, мутахассислик мавзулари бўиича суҳбатларда қатнашиш учун зарур бўлган кўникмани текшириш мақсадида семестрда 2 марта гурухда назорат машғулоти ўтказиш.

2.4. Жорий ва якуний назорат

Жорий назорат айрим дарсларда ўтказилгани каби машғулотлар цикли тугагандан сўнг ҳам ўтказилади.

Якуний назорат семестр якуни ёки ўқув йили тугалланишига бағишланиб, турли шаклларда ўтказилиб, таркибига назорат ишлари ҳам киради. (сиртқи талабалар учун семестрда 1 тадан кам бўлмаган назорат иш). Ҳар бир семестр синов билан олий ўқув юрти курси эса Давлат аттестацияси билан якунланади.

Инглиз, немис, француз тиллари бўйича синовлар I, **II,** III, IV, V семестрлар сўнггида ўтказилади, VI семестр якунида эса - Давлат аттестацияси ўтказилади. Талаба жорий ўзлаштириши асосида семестр синовларидан ўтади.

Аттестациялар. Талабалар дастурда кўрсатилган синовлар топшириб, таълимнинг учинчи босқичидаги мажбурий индивидуал вазифаларни бажарганидан сўнг Давлат аттестациясига қўйилади. Аттестацияда нутқий фаолият

турлари бўйича дастур талабларига мувофиқ инглиз, француз, немис тилларини амалий ўзлаштириш даражаси текширилади.

2.5. Якуний назоратни ташкил қилиш ва мазмуни

Якуний назорат ҳар бир семестрнинг охирида аттестация сифатида амалга оширилади. Талабалар имтиҳонга таълимнинг учинчи босқичида назарда тутилган синов ва индивидуал вазифаларни бажарганидан сўнг қўйилади. Хорижий тил бўйича имтиҳон ўқув режасига мувофиқ ўтказилади.

Якуний назорат мазмуни: (давлат аттестацияси):

1. Мутахассислик бўйича матн мазмунини тўла ва аниқ тушуниб ўқий олишни текшириш.

Назорат шакли: матнни луғат ёрдамида ёзма таржима қилиш; матн хажми 1000-1200 босма белги -45 минут.

2. Мутахассислик бўйича оригинал матннинг мазмуни билан танишиш мақсадида ўқишни билишни текшириш.

Назорат шакли: мутахассислик бўйича матнда мавжуд бўлган ахборотни она тили ёки ўрганилаётган тилда (оғзаки) етказиш: матн хажми 2000 босма белги; матнни ўқиш учун вақт-4 минут.

3. Оғзаки мулоқотда ўрганилаётган тилда иштирок эта олишни текшириш.

МУНДАРИЖА

1. Сўз боши..... 3
1.1.Фан мазмунига қўйиладиган малакавий талаблар.. 3
1.2. Хорижий тилларни уқитишнинг мақсад ва вазифалари..... 5
1.3. Хорижий тилни ўқитиш босқичлари ва уларга ажратилган вақт миқцори 6
1.4.Таълимнинг I босқичи мазмуни..... 6
1.5.Таълимнинг иккинчи босқичи мазмуни 8
1.6.Таълимнинг учинчи босқичи мазмуни 10
1.7.Ёзув 11
1.8.Инглиз тили бўйича сўз ясаш ва грамматик минимум 11
1.9.Немис тили бўиича сўз ясаш ва грамматик минимум 15
1.10 Француз тили бўйича сўз ясаш ва грамматик минимум. Таълимнинг биринчи босқичи 17
1.11. Хорижий тилни ўрганишни бошловчи талабаларни ўқитишнинг хусусиятлари , 21

2. Ўқиганлик мезонлари ва ўқилган материални ўзлаштиришнинг назорат шакллари

2.1.Таълимнинг биринчи босқичи 22
2.2.Таълимнинг II босқичи..... 23
2.3.Таълимнинг учинчи босқичи 24
2.4.Жорий ва якуний назорат..... 25
2.5.Якуний назоратни ташкил қилиш ва мазмуни 26

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

"Tasdiqlandi"
O'quv ishlar prorektori
----------D. Durdiyev

"----"---------2011y
Ro'yxatga olindi.
№----------

"Tasdiqlandi"

Filologiya fakulteti ilmiy
kengashida tasdiqlangan

Kengash raisi:---------
Bobokalonov R.R.
"----"----------2011

OLIY TA'LIMNING

140000 -"O`qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani" ta`lim sohasi

5141900 – Jismoniy madaniyat va jismoniy tarbiya yo'nalishidagi talabalar uchun

Xorijiy tillar (nemis tili) fanidan ishchi o'quv dasturi

BUXORO - 2011

Ishchi dastur O`z.R. OO`MTVning 2004- yil 17 avgustdagi buyrug`i bilan tasdiqlangan namunaviy o`quv dasturi asosida tuzildi.

Tuzuvchi: katta o'qituvchi Ro'ziyev M.Q.

" nemis tili" fanidan ishchi dastur. B.: BuxDU, 2011- y

TAQRIZCHILAR:

N.I.Axmedova – Chet tillar kafedrasi nemis tili o'qituvchisi.

Samadava S. - Chet tillar kafedrasi nemis tili o'qituvchisi

Ishchi o`quv dasturi kafedra yig'ilishida muhokama qilingan va tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: Fayzullayev O.M.

KIRISH

1.1.Fanni o’qitish maqsadi va vazifalari

Nolisoniy pedagogika oliy o’kuv yurtida chet tillarga o’rgatishning asosiy maqsadi bu talabalarning nutq faoliyatining barcha turlariga o’rgajishdir: O’qish va yozishdir, tinglash, so’zlash (o’quv materialini kcmpleks tashkil qilish va yangi innovatsiya metodikalarni qo’llash asosida).

Ushbu maqsadni amalga oshirish tarbiyaviy, umumta'lini va rivojlantirish maqsadlar bilan uzliksiz bog'lanib turadi.

Chet tili kursi talabalarning mafkuraviy - siyosiy tarbiyalariga, milliy -samosozi, faol hayot dunyoqarashning shakllanishiga ko’maklashishi lozim.

I va II kurslar davomida tinglash, so’zlash, O’qish va yozish asoslari poydevori yasaladi. III kursda esa o’rgatish murakkabroq material asosida olib boriladi, shu bois ushbu kursda e'tibor maxsus tekstlarga beriladi.

2.1.Fanni o’zlashtirishga qo’yiladigan umumiy talablar

Xorijiy tilning tovush tizimi va morfologiyasining ona tili tovush tizimi va morfologiyasi bilan farqli va o’xshash tomonlari to’g'risida tushunchaga ega bo’lishi.

- xorijiy tillardagi gap tuzilishi va gapdagi so’zlarning tartibi to'g'risida ko’nikmalarni egallash;
- xorijiy tillarda so’zlami to'g'ri talaffuz qilishni o’zlashtirib olish.

- o’z soasida shu tilda fikr ifodalay olishi, shuningdek xorijiy tillar bo’yicha olgan bilimlar va xosil qilgan ko’nikmalari asosida yozma ishlar (referat, tarjima a boshqalarjni tayyorlay olishi lozim.
- ilmiy atamalarni tushunish va tildan foydalanish jarayonida mustaqil ravishda og'zaki va yozma nutq ko’nikmalarini mustaqil ravishda qo’llay olishi kerak.

2.2. Fanga ajratilgan o’quv soatlarining o’quv turlari bo’yicha taqsimoti

Kursning amaliy maqsadi talabalarda fonetik, kommunikativ va lingvomamlakatshunoslik ko’nikma va malakalarni hamda madaniyatlararo muloqat qobilyatini shakllantirishdan iboratdir.

Nolisoniy malaka til tizimi haqidagi bilim va uning madaniyatlararo muloqot jarayonida amal qilish qoidalarini o’z ichiga qamrab oladi.
Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi mavzular fonetika, grammatika va quyidagi suhbat mavzular tavsiya etiladi.

Fanning amaliy va mustaqil ish mashg’ulotlari mavzularining soatlar bo’yicha taqsimoti.

2.3. Ta'limning I bosqich (I kurs talabalari uchun) **mavzulari. I va II** semestr 120 soat

I KURS:

№	Mavzular nomi va mazmuni	Jami	m‘aruza	amaliy	Seminar	reyting	mustaqil
1.	Nemis alfaviti.Nemis tilida unli harflar	2		2			
2	Umlaut.Diphtong.Nemis tilida so’z tartibi	2		2			
3	Nemis tilida harf birikmalari.Artikel	2		2			
4	Nemis tilida undosh harflar.Ot	2		2			
5	Otlarning turlanishi	2		2			
6	Wer sind Sie? Was sind Sie?	2		2			
7	Präsens	2		2			
8	Ein Tag an der Hochschule	2		2			
9	Ajraladigan va ajralmaydigan old qo’shimchali fe’llar	2		2			
10	Unsere Universität.	2		2			
11	Olmosh.Egalik olmoshlari	2		2			
12	Mein Arbeitstag	2		2			
13	So’roq so’zlar.Perfekt.	2		2			
14	Unsere Gruppe.	2		2			
15	Son. Imperativ.	2		2			
16	Mein Ruhetag	2		2			
17	Modal fe’llar. “ nicht “ va “ kein “ inkor so’zlari	2		2			
18	Meine Familie	2		2			
19	Kishilik olmoshlari	2		2			
20	Mein Lebenslauf	2		2			
21	Yasama otlarning yasalishi	2		2			

22	Mein Freunde	2		2			
23	Otlarning ko'plik formasi	2		2			
24	Das Studium und die Erholung	2		2			
25	Darak gaplarda so'z tartibi. Sifat.	2		2			
26	Die Aufgabe des Lehrers.	2		2			
27	Sifat darajalari	2		2			
28	Im Kaufhaus	2		2			
29	Predloglar.Akkusativ kelishidagi predloglar.	2		2			
30	Die neue Wohnung	2		2			
	Jami :	**60**		**60**			
	II jarayon						
1	Imperativ	2		2			
2	Meine Schule	2		2			
3	Ko'rsatish olmoshlari	2		2			
4	Theater und Kino	2		2			
5	Imperfekt	2		2			
6	Freizeit	2		2			
7	Plusquamperfekt	2		2			
8	Reise	2		2			
9	Futurum	2		2			
10	Mein Visiten Karte	2		2			
11	Präsens Passiv	2		2			
12	Die Deutschstunde	2		2			
13	Imperfekt Passiv	2		2			
14	Mein Hobby	2		2			
15	Modal fe'llar	2		2			
16	Bücher in unserem Leben	2		2			
17	Modal fe'llarning Imperfekti	2		2			
18	Die Mahlzeit	2		2			
19	Haben,sein, werden yordamchi fe'llar	2		2			
20	Die Jahreszeiten	2		2			
21	Man va es olmoshlari	2		2			
22	Wie ist das Wetter heute?	2		2			
23	Perfekt Passiv	2		2			
24	Auf dem Post	2		2			
25	Plusquamperfekt Passiv	2		2			
26	In der Bibliothek	2		2			
27	Futurum Passiv	2		2			

28	Beim Arzt	2		2			
29	Sifat turlanishi	2		2			
30	Ferien	2		2			
	Jami :	**60**		**60**			
	I – II semestr jami soati:	**120**		**120**			

Ta'limning II bosqich (II kurs talabalari uchun) mavzular III va **IV** semestr 72 soat.

№	Mavzular nomi va mazmuni	Jami	m‘aruza	amaliy	Seminar	reyting	Mustaqil
1	Infinitiv guruhlari.	2		2			
2	Ösbekizton	2		2			
3	Partizip – I,II	2		2			
4	Kunst Literatur und Bildung in Ösbekizton	2		2			
5	Ot va lug’atda ifodalanishi	2		2			
6	Bildungswesen in Ösbekizton	2		2			
7	Ko’rsatish olmoshlari	2		2			
8	Toschkent	2		2			
9	Haben + Infinitiv,sein+infinitiv	2		2			
10	Samarkand	2		2			
11	Yasama otlar	2		2			
12	Buchoro	2		2			
13	Yasama fe’llar	2		2			
14	Amir Temur	2		2			
15	Konjunktiv Präsens	2		2			
16	Alischer Nawoi	2		2			
17	Imperfekt Konjunktiv	2		2			
18	Nawrös	2		2			
	Jami :	**36**		**36**			
1	Imperfekt Konjunktiv	2		2			
2	Deutschland	2		2			
3	Perfekt Konjunktiv	2		2			
4	Bildungswesen in Deutschland	2		2			
5	Plusquamperfekt Konjunktiv	2		2			
6	Deutschsprechende Länder	2		2			
7	Futurum Konjunktiv	2		2			
8	Berlin	2		2			
9	Konditionaler I,II Konjunktiv	2		2			
10	Leipzig	2		2			
11	Infinitiv I va II	2		2			

1. wir, heute, Deutsch, haben. 2. beginnen, um neun Uhr, die Stunde. 3. antworten, wir, richtig. 4. den Text, sie, uebersetzen. 5. der Lehrer, zufrieden, sein. 6. Anwar, lesen, ein Buch. 7. nach Hause, die Studenten, fahen. 8. sein, die Stunde, zu Ende.

4. Nemis tiliga tarjima qiling.

1. Bu auditoriya.
2. Bugun bizda nemis tili bor.
3. Dars boshlanyapti.
4. Qo’ng’iroq chalinyapti.
5. Bugun biz yangi matnni o’qiymiz.

5.Ushbu mavzuga nemis tilida hikoya tuzing.

“Mein Arbeitstag”

o’rnidan turmoq, ish kuni, boshlamoq, erta, nonushta qilmoq, yuvinmoq, taranmoq, sovuq, sut, non, sariyog’, yemoq, soat, chet tili, dars, darslik, jurnal, imkoniyat, ko’p, gazeta, jurnal, yordam bermoq, kerak bo’lmoq, bir-biriga, tugamoq, badantarbiya qilmoq, ixtiyorida bo’lmoq, qaytib kelmoq.

Variant-11

1.Fe’llarni tuslang (I-II-III shaxs birlik)
treiben, machen, sprechen, singen, helfen, gehen, laufen.

2.Quyidagi fe’l va otlardan foydalanib gaplar tusing (5ta).

der Brief, die Freunde, das Leben, bekaempfen, der Name, beantworten, machen, unser, die Freundschaft, bringen, noch, das Maedchen, die Versammlung, der Held.

3. Gaplarni to’ldiring.
1. Die Arbeit mein… Vaters ist sehr interessant. 2. Die Arbeit mein… Mutter ist auch sehr interessant. 3. Das Zimmer unser… Schwester ist gut. 4. Die Buecher ihr… Bruders stehen im Buecherschrank.

4. Nemis tiliga tarjima qiling.

1. Mening oilam bor.
2. Bizning oilamiz Toshkentda yashaydi.
3. Sening o’g’ling bormi?
4. Uning bolalari hali kichkina.
5. Mening kichkina ukam maktabga boradi.

5. Ushbu mavzuga nemis tilida hikoya tuzing.

“Die Arbeit in einem Kindergarten”

tarbiyachi, ishlamoq, sifatida, g’amho’r, boshlamoq, qiziqmoq, yoqtirmoq, orzu qilmoq, intilmoq, o’ylamoq, maqtamoq, aytmoq, xursand bo’lmoq, kuchli, iroda, ustoz, yordamchi, tarbiyalamoq, kerak, mumkin, yo’l topmoq, zarar, saboq, ko’rmoq, eshitmoq, birga, bolalar, bog’cha.

Variant-12

1.Fe’llarni tuslang (I-II-III shaxs birlik)

treiben, machen, sprechen, singen, helfen, gehen, laufen.

2. Quyidagi fe’l va otlardan foydalanib gaplar tusing (5ta).

Fragen, stellen, schon, woher, Sport, treiben, das Mitglied, wissen, erwarten, jung, zusammen, heissen, arbeiten, aufrufen, das Gebaeude, vorschlagen.

3. Gaplarni to’ldiring.

1. Die Arbeit mein… Vaters ist sehr interessant. 2. Die Arbeit mein… Mutter ist auch sehr interessant. 3. Das Zimmer unser… Schwester ist gut. 4. Die Buecher ihr… Bruders stehen im Buecherschrank.

4. Nemis tiliga tarjima qiling.

1. Sen bu kitobni tarjima qila olasan.
2. Men matnni o’qiy olaman.
3. Siz unga yordam bera olasizmi?
4. Unga hech kim yordam bera olmaydi.
5. Biz kitob o’qiy olamiz.

5. Ushbu mavzuga nemis tilida hikoya tuzing.

“**Unsere Universitaet**”

joylashmoq, devonxona, kadrlar bo’limi, jihozlangan, ta’lim, boshqarmoq, zamonaviy, tugatmoq, fan yonalishi, auditoriya, o’qish muddati, chet tili, tarix, keyin, asos, hafta, darslik, takrorlamoq, ma’ruza o’qimoq, ibora, boshida turmoq.

Variant-13

1.Fe’llarni tuslang (I-II-III shaxs birlik)

treiben, machen, sprechen, singen, helfen, gehen, laufen.

2.Quyidagi fe'l va otlardan foydalanib gaplar tusing (5ta).

der Brief, die Freunde, das Leben, bekaempfen, der Name, beantworten, machen, unser, die Freundschaft, bringen, noch, das Maedchen, die Versammlung, der Held.

3. Gaplarni to'ldiring.
1. Die Arbeit mein… Vaters ist sehr interessant. 2. Die Arbeit mein… Mutter ist auch sehr interessant. 3. Das Zimmer unser… Schwester ist gut. 4. Die Buecher ihr… Bruders stehen im Buecherschrank.

4. Nemis tiliga tarjima qiling.

1. Mening oilam bor.
2. Bizning oilamiz Toshkentda yashaydi.
3. Sening o'g'ling bormi?
4. Uning bolalari hali kichkina.
5. Mening kichkina ukam maktabga boradi.

5. Ushbu mavzuga nemis tilida hikoya tuzing.

"Die Arbeit in einem Kindergarten"
tarbiyachi, ishlamoq, sifatida, g'amho'r, boshlamoq, qiziqmoq, yoqtirmoq, orzu qilmoq, intilmoq, o'ylamoq, maqtamoq, aytmoq, xursand bo'lmoq, kuchli, iroda, ustoz, yordamchi, tarbiyalamoq, kerak, mumkin, yo'l topmoq, zarar, saboq, ko'rmoq, eshitmoq, birga, bolalar, bog'cha.

Amaliy mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar

1.Aniq va noaniq artillarning turlanish jadvali

2.Otlarning turlanish jadvali

3.Kuchli fe'llarning Presensda tuslanishi jadvali

4.Kuchsiz fe'llarning Presensda tuslanishi jadvali

5.Imperfektning yasalishi jadvali

6.Kuchli va kuchsiz fe'llarning Imperfektda tuslanishi jadvali

7.Ajraladigan va ajralmaydigan oldqo’shimchali fe’llarning Presensda tuslanishi jadvali

8.Kishilik olmoshlarining turlanishi jadvali

9.Egalik olmoshlarining turlanishi jadvali

10.Ko’rsatish olmoshlarining turlanishi jadvali

11.Modal fe’llarning Presensda tuslanishi jadvali

12.Modal fe’llarning Imperfektda tuslanishi jadvali

13.“haben”, “sein” va “werden” fe’llarining Presensda tuslanishi jadvali

14.Passivning yasalishi jadvali

15.Sanoq va tartib sonlar jadvali

16.Sifat darajalari jadvali

17.Ravish darajalari jadvali

18.Sifatdosh I, II jadvali

19.Dativ va Akkuzativ kelishigi predloglari

20.Imperativning yasalishi jadvali

Darsda foydalaniladigan adabiyotlar ro’yxati

1.Z.Toshev “ Nemis tili darsligi ” Toshkent - 19

2.O.Jumaniyozov “Nemis tili darsligi” Toshkeht-1997y

3.S.Naimov, M.Bozorov “Nemis tili darsligi” Toshkeht-2004y

4.S.S.Saidov “Nemis tili darsligi mashqlarda” Toshkent-2003y

5.Y.Nurmurodov, O.Nurmurodov “Noixtisos fakultetlar talabalari uchun o’quv qollanma “ Toshkent-2005y

6.M.A.Xo’jayeva “Nemis tilidan o’quv-usuliy qo’llanma” Buxoro-2007y

7.G’.Zikrillayev “Deutsch” o’quv-usuliy qo’llanma.

Buxoro – 2006 й

Qo’shimcha adabiyotlar

1. L.A. Lipskaya “Deutsch” Kiyev-1979y
2. M.A. Xojayeva „Nemis tilidan o’quv-usuliy qo’llanma“ Buxoro-2005y
3. Y.Nurmurodov “Kurze Geschichte von Deutschland und O’sbekiston in Texten” Fan hashriyoti-2006y
4. Н. И. Романовская „ 200 тем немецкого языка “ Москва – 2007 г.
5. Sprachführer. Deutsch-Usbekisch-Russisch
6. Z.Sodiqov “Olmon tili grammatikasi”
7. Z.Butayev „Worterbuch“ Deutsch-uzbekisch Worterbuch.Toshkent-2007y.
8. Z.R.Benyaminov “ Deutsch-uzbekisch Lehrworterbuch“ Toshkent-1991y.
9. Internet saytlari

1981-1
26 август

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

БУЙРУҚ

Тошкент шахри "25" август 2010 йил № 333

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЛАБАЛАР БИЛИМИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ ВА БАҲОЛАШНИНГ РЕЙТИНГ ТИЗИМИ ТЎҒРИСИДАГИ НИЗОМГА ЎЗГАРТИРИШ ВА ҚЎШИМЧАЛАР КИРИТИШ ҲАҚИДА

Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 9-сон, 225-модда) ва "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида"ги (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 11-12-сон, 295-модда) қонунларига ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 20 июлдаги 341-сон "Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида"ги қарорига (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 29-сон, 332-модда) мувофиқ, шунингдек олий таълим муассасалари талабаларининг билим савияси, кўникма ва малакаларини назорат қилиш ҳамда баҳолаш жараёнларини такомиллаштириш мақсадида **буюраман:**

1. Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирининг 2009 йил 11 июндаги 204-сон буйруғи (рўйхат рақами 1981, 2009 йил 10 июль) (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2009 й., 28-сон, 330-модда) билан тасдиқланган Олий таълим муассасаларида талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисидаги низомга иловага мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

2. Мазкур буйруқ Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида давлат рўйхатидан ўтказилган кундан бошлаб ўн кун ўтгандан кейин кучга киради.

Вазир Ходиев **Б. Ходиев**

Ўзбекистон Республикаси
олий ва ўрта махсус таълим
вазирининг 2010 йил 25 августдаги
333-сон буйруғига
ИЛОВА

Олий таълим муассасаларида талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисидаги низомга киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар

1. 6-банд учинчи хатбошисининг иккинчи жумласи қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

"Оралиқ назоратининг сони (бир семестрда икки мартадан кўп ўтказилмаслиги лозим) ва шакли (ёзма, оғзаки, тест ва ҳоказо) ўқув фанига ажратилган умумий соатлар ҳажмидан келиб чиққан ҳолда белгиланади".

2. 11-бандда:

учинчи хатбошисидаги "15" рақами "30" рақамига алмаштирилсин;

тўртинчи хатбошисидаги "85" рақами "70" рақамига алмаштирилсин.

3. 12-банд ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

4. 14-бандда:

"в" кичик бандидаги "56" рақами "55" рақами билан алмаштирилсин;

"г" кичик бандидаги "55" рақами "54" рақами билан алмаштирилсин.

5. 16-банддан "ва топшириқлари" деган сўзлар чиқариб ташлансин.

6. 18-бандниng биринчи хатбошиси "фан бўйича" деган сўзлардан кейин "бир семестрдаги" деган сўзлар билан тўлдирилсин.

7. 19-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

"19. Фан бўйича жорий ва оралиқ назоратларга ажратилган умумий балнинг 55 фоизи саралаш балл ҳисобланиб, ушбу фоиздан кам балл тўплаган талабалар якуний назоратга киритилмайди.

Жорий ва оралиқ назорат турлари бўйича 55 ва ундан юқори бални тўплаган талаба фанни ўзлаштирган деб ҳисобланади ва ушбу фан бўйича якуний назоратга кирмаслигига йўл қўйилади.

Тиббиёт олий таълим муассасаларида фан бўйича жорий, оралиқ ва якуний назоратларнинг ҳар бирига ажратилган балнинг 55 фоизи саралаш балл этиб белгиланади ва бунда жорий ва оралиқ назоратларнинг ҳар бирига ажратилган балнинг 55 ва ундан юқори фоизидаги бални тўплаган талабалар ушбу фан бўйича якуний назоратга киритилади".

8. 23-бандниng иккинчи хатбошиси чиқариб ташлансин.

9. 24-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

"24. Талабанинг семестрда жорий ва оралиқ назорат турлари бўйича тўпланган баллари ушбу назорат турлари умумий балининг 55 фоизидан кам бўлса ёки семестр якунида жорий, оралиқ ва якуний назорат турлари бўйича тўпланган баллари йиғиндиси 55 балдан кам бўлса, у академик қарздор деб ҳисобланади.

Тиббиёт олий таълим муассасаларида семестр якунида фан бўйича жорий, оралиқ ёки якуний назорат турларининг ҳар бири бўйича саралаш балидан кам балл тўплаган талаба академик қарздор ҳисобланади.

Академик қарздор талабаларга семестр тугаганидан кейин қайта ўзлаштириш учун бир ой муддат берилади. Шу муддат давомида фанни ўзлаштира олмаган талаба факультет декани тавсиясига кўра белгиланган тартибда ректорнинг буйруғи билан талабалар сафидан четлаштирилади".

10. 28-банддаги "ва профессор-ўқитувчи журналлари" деган сўзлар "журнали" деган сўз билан алмаштирилсин.

11. 29-банддаги "деканат" деган сўз "фан ўқитувчиси" деган сўзлар билан алмаштирилсин.

12. 32-банд қуйидаги хатбоши билан тўлдирилсин:

"Талабага имтиёзли диплом белгилашда унинг ҳар бир семестр якунидаги фанлар бўйича ўзлаштириш кўрсаткичи ҳисобга олинади".

13. 33-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

"33. Талабаларнинг назорат турлари бўйича эришган натижалари кафедралар, деканатлар ва ўқув-методик бўлинмаларда компьютер хотирасига киритилиб, мунтазам равишда таҳлил қилиб борилади".

14. Мазкур ўзгартириш ва қўшимчалар Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази, Халқ таълими вазирлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги, Маданият ва спорт ишлари вазирлиги, Ўзбекистон Бадиий академияси, Ташқи ишлар вазирлиги, Ўзбекистон алоқа ва ахборотлаштириш агентлиги, "Ўзбекистон темир йўллари" давлат-акциядорлик компанияси, Давлат солиқ қўмитаси ва Навоий кон-металлургия комбинати билан келишилган.

Олий таълим муассасаларида талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисида

НИЗОМ

(Ушбу Низом Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2009 йил 11 июндаги 204-сон буйруғи билан тасдиқланган ва Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 2009 йил 10 июлда 1981-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган.

Топшириққа мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2010 йил 25 августдаги 333-сон буйруғи билан Низомга ўзгартириш ва қўшимчалар киритилган ҳамда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 2010 йил 26 августда 1981-1-сон билан давлат рўйхатидан қайта ўтказилган.)

Мазкур Низом Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 9-сон, 225-модда) ва "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида"ги (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 11-12-сон, 295-модда) қонунларига ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 16 августдаги 343-сон "Олий таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида" қарорига (Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2001 й., 15-16-сон, 104-модда) мувофиқ олий таълим муассасаларида талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизимини тартибга солади.

I. Умумий қоидалар

1. Талабалар билимини назорат қилиш ва рейтинг тизими орқали баҳолашдан мақсад таълим сифатини бошқариш орқали рақобатбардош кадрлар тайёрлашга эришиш, талабаларнинг фанларни ўзлаштиришида бўшлиқлар ҳосил бўлишини олдини олиш, уларни аниқлаш ва бартараф этишдан иборат.

2. Рейтинг тизимининг асосий вазифалари қуйидагилардан иборат:

а) талабаларда Давлат таълим стандартларига мувофиқ тегишли билим, кўникма ва малакалар шаклланганлиги даражасини назорат қилиш ва таҳлил қилиб бориш;

б) талабалар билими, кўникма ва малакаларини баҳолашнинг асосий тамойиллари: Давлат таълим стандартларига асосланганлик, аниқлик, ҳаққонийлик, ишончлилик ва қулай шаклда баҳолашни таъминлаш;

в) фанларнинг талабалар томонидан тизимли тарзда ва белгиланган муддатларда ўзлаштирилишини ташкил этиш ва таҳлил қилиш;

г) талабаларда мустақил ишлаш кўникмаларини ривожлантириш, ахборот ресурслари манбаларидан самарали фойдаланишни ташкил этиш;

д) талабалар билимини холис ва адолатли баҳолаш ҳамда унинг натижаларини вақтида маълум қилиш;

е) талабаларнинг фанлар бўйича комплекс ҳамда узлуксиз тайёргарлигини таъминлаш;

ж) ўқув жараёнининг ташкилий ишларини компьютерлаштиришга шароит яратиш.

3. Фанлар бўйича талабалар билимини семестрда баҳолаб бориш рейтинг назорати жадваллари ва баҳолаш мезонлари асосида амалга оширилади.

II. Назорат турлари ва уни амалга ошириш тартиби

4. Назорат турлари, уни ўтказиш тартиби ва мезонлари кафедра мудири тавсияси билан олий таълим муассасасининг (факультет) ўқув-услубий кенгашида муҳокама қилинади ва тасдиқланади ҳамда ҳар бир фаннинг ишчи ўқув дастурида машғулот турлари билан биргаликда кўрсатилади.

5. Рейтинг назорати жадваллари, назорат тури, шакли, сони ҳамда ҳар бир назоратга ажратилган максимал балл, шунингдек жорий ва оралиқ назоратларнинг саралаш баллари ҳақидаги маълумотлар фан бўйича биринчи машғулотда талабаларга эълон қилинади.

6. Талабаларнинг билим савияси ва ўзлаштириш даражасининг Давлат таълим стандартларига мувофиқлигини таъминлаш учун қуйидаги назорат турларини ўтказиш назарда тутилади:

жорий назорат – талабанинг фан мавзулари бўйича билим ва амалий кўникма даражасини аниқлаш ва баҳолаш усули. Жорий назорат фаннинг хусусиятидан келиб чиққан ҳолда, семинар, лаборатория ва амалий машғулотларида оғзаки сўров, тест ўтказиш, суҳбат, назорат иши, коллоквиум, уй вазифаларини текшириш ва шу каби бошқа шаклларда ўтказилиши мумкин;

оралиқ назорат – семестр давомида ўқув дастурининг тегишли (фаннинг бир неча мавзуларини ўз ичига олган) бўлими тугаллангандан кейин талабанинг билим ва амалий кўникма даражасини аниқлаш ва баҳолаш усули. Оралиқ назоратининг сони (бир семестрда икки мартадан кўп ўтказилмаслиги лозим) ва шакли (ёзма, оғзаки, тест ва ҳоказо) ўқув фанига ажратилган умумий соатлар ҳажмидан келиб чиққан ҳолда белгиланади;

якуний назорат – семестр якунида муайян фан бўйича назарий билим ва амалий кўникмаларни талабалар томонидан ўзлаштириш даражасини баҳолаш усули. Якуний назорат асосан таянч тушунча ва ибораларга асосланган “Ёзма иш” (тиббиёт олий таълим муассасалари учун “Ёзма иш” ёки ОТКС (объектив тизимлаштирилган клиник синов)) шаклида ўтказилади.

Таълим йўналиши ва мутахассисликлари айрим фанларининг хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда факультет Илмий кенгаши қарори асосида кўпи билан 40% фанлардан якуний назоратлар бошқа шаклларда (оғзаки, тест ва ҳоказо) ўтказилиши мумкин.

7. Оралиқ назоратни ўтказиш жараёни кафедра мудири томонидан тузилган комиссия иштирокида даврий равишда ўрганиб борилади ва уни ўтказиш тартиблари бузилган ҳолларда, оралиқ назорат натижалари бекор қилинади ҳамда оралиқ назорат қайта ўтказилади.

8. Олий таълим муассасаси раҳбарининг буйруғи билан ички назорат ва мониторинг бўлими раҳбарлигида тузилган комиссия иштирокида якуний назоратни ўтказиш жараёни даврий равишда ўрганиб борилади ва уни ўтказиш тартиблари бузилган ҳолларда, якуний назорат натижалари бекор қилинади ҳамда якуний назорат қайта ўтказилади.

9. Ўқув йили тугаганидан кейин рейтинг назорати натижаларига кўра талабаларни кейинги курсга ўтказиш тўғрисида белгиланган тартибда қарор қабул қилинади.

III. Баҳолаш тартиби ва мезонлари

10. Талабаларнинг билим савияси, кўникма ва малакаларини назорат қилишнинг рейтинг тизими асосида талабанинг ҳар бир фан бўйича ўзлаштириш даражаси баллар

11. Ҳар бир фан бўйича талабанинг семестр давомидаги ўзлаштириш кўрсаткичи 100 баллик тизимда бутун сонлар билан баҳоланади.

Ушбу 100 балл назорат турлари бўйича қуйидагича тақсимланади:

якуний назоратга – 30 балл;

жорий ва оралиқ назоратларга – 70 балл (фаннинг хусусиятидан келиб чиққан ҳолда 70 балл кафедра томонидан жорий ва оралиқ назоратларга тақсимланади).

12.

13. Талабанинг рейтинг дафтарчасига алоҳида қайд қилинадиган курс иши (лойиҳаси, ҳисоб-график ишлари), малакавий амалиёт, фан (фанлараро) бўйича якуний давлат аттестацияси, битирув малакавий иши ва магистратура талабаларининг илмий-тадқиқот ва илмий-педагогик ишлари, магистрлик диссертацияси бўйича ўзлаштириш даражаси – 100 баллик тизимда баҳоланади.

14. Талабанинг фан бўйича ўзлаштириш кўрсаткичини назорат қилишда қуйидаги намунавий мезонлар (кейинги ўринларда намунавий мезонлар деб юритилади) тавсия этилади:

а) 86-100 балл учун талабанинг билим даражаси қуйидагиларга жавоб бериши лозим:

хулоса ва қарор қабул қилиш;

ижодий фикрлай олиш;

мустақил мушоҳада юрита олиш;

олган билимларини амалда қўллай олиш;

моҳиятини тушуниш;

билиш, айтиб бериш;

тасаввурга эга бўлиш.

б) 71-85 балл учун талабанинг билим даражаси қуйидагиларга жавоб бериши лозим:

мустақил мушоҳада юрита олиш;

олган билимларини амалда қўллай олиш;

моҳиятини тушуниш;

билиш, айтиб бериш;

тасаввурга эга бўлиш.

в) 55-70 балл учун талабанинг билим даражаси қуйидагиларга жавоб бериши лозим:

моҳиятини тушуниш;

билиш, айтиб бериш;

тасаввурга эга бўлиш.

г) қуйидаги ҳолларда талабанинг билим даражаси 0-54 балл билан баҳоланиши мумкин:

аниқ тасаввурга эга бўлмаслик;

билмаслик.

15. Намунавий мезонлар асосида муайян фандан жорий ва оралиқ назоратлар бўйича аниқ мезонлар ишлаб чиқилиб, кафедра мудири томонидан тасдиқланади ва талабаларга эълон қилинади.

16. Намунавий мезонларга мувофиқ мутахассислик фанлар бўйича таянч олий таълим муассасалари томонидан якуний назорат учун баҳолаш мезонлари ишлаб чиқилиб, олий таълим муассасаси Илмий-услубий кенгаши томонидан тасдиқланади ва турдош олий таълим муассасаларига етказилади.

17. Талабаларнинг ўқув фани бўйича мустақил иши жорий, оралиқ ва якуний назоратлар жараёнида тегишли топшириқларни бажариши ва унга ажратилган баллардан келиб чиққан ҳолда баҳоланади.

18. Талабанинг фан бўйича бир семестрдаги рейтинги қуйидагича аниқланади:

$$R_f = \frac{V \bullet O'}{100}$$

бу ерда:

V– семестрда фанга ажратилган умумий ўқув юкламаси (соатларда);

O' –фан бўйича ўзлаштириш даражаси (балларда).

19. Фан бўйича жорий ва оралиқ назоратларга ажратилган умумий балнинг 55 фоизи саралаш балл ҳисобланиб, ушбу фоиздан кам балл тўплаган талабалар якуний назоратга киритилмайди.

Жорий ва оралиқ назорат турлари бўйича 55 ва ундан юқори бални тўплаган талаба фанни ўзлаштирган деб ҳисобланади ва ушбу фан бўйича якуний назоратга кирмаслигига йўл қўйилади.

Тиббиёт олий таълим муассасаларида фан бўйича жорий, оралиқ ва якуний назоратларнинг ҳар бирига ажратилган балнинг 55 фоизи саралаш балл этиб белгиланади ва бунда жорий ва оралиқ назоратларнинг ҳар бирига ажратилган баллнинг 55 ва ундан юқори фоизидаги бални тўплаган талабалар ушбу фан бўйича якуний назоратга киритилади.

20. Талабанинг семестр давомида фан бўйича тўплаган умумий бали ҳар бир назорат туридан белгиланган қоидаларга мувофиқ тўплаган баллари йиғиндисига тенг.

IV. Назорат турларини ўтказиш муддати

21. Оралиқ ва якуний назорат турлари календарь тематик режага мувофиқ деканат томонидан тузилган рейтинг назорат жадваллари асосида ўтказилади. Якуний назорат семестрнинг охирги 2 ҳафтаси мобайнида ўтказилади.

22. Талаба фан бўйича курс лойиҳаси (иши)ни ушбу фан бўйича тўплаган баллари умумлаштирилишига қадар топшириши шарт.

23. Жорий ва оралиқ назоратларда саралаш баллидан кам балл тўплаган ва узрли сабабларга кўра назоратларда қатнаша олмаган талабага қайта топшириш учун, навбатдаги шу назорат туригача, сўнгги жорий ва оралиқ назоратлар учун якуний назоратгача бўлган муддат берилади.

Касаллиги сабабли дарсларга қатнашмаган ҳамда белгиланган муддатларда жорий, оралиқ ва якуний назоратларни топшира олмаган талабаларга факультет декани фармойиши асосида, ўқишни бошлаганидан сўнг икки ҳафта муддатда топширишга рухсат берилади.

24. Талабанинг семестрда жорий ва оралиқ назорат турлари бўйича тўпланган баллари ушбу назорат турлари умумий балининг 55 фоизидан кам бўлса ёки семестр якунида жорий, оралиқ ва якуний назорат турлари бўйича тўпланган баллари йиғиндиси 55 балдан кам бўлса, у академик қарздор ҳисобланади.

Тиббиёт олий таълим муассасаларида семестр якунида фан бўйича жорий, оралиқ ёки якуний назорат турларини ҳар бири бўйича саралаш балидан кам балл тўплаган талаба академик қарздор ҳисобланади.

Академик қарздор талабаларга семестр тугаганидан кейин қайта ўзлаштириш учун бир ой муддат берилади. Шу муддат давомида фанни ўзлаштира олмаган талаба, факультет декани тавсиясига кўра белгиланган тартибда ректорнинг буйруғи билан талабалар сафидан четлаштирилади.

25. Талаба назорат натижаларидан норози бўлса, фан бўйича назорат тури натижалари эълон қилинган вақтдан бошлаб бир кун мобайнида факультет деканига ариза билан мурожаат этиши мумкин. Бундай ҳолда факультет деканининг тақдимномасига

кўра ректор буйруғи билан 3 (уч) аъзодан кам бўлмаган таркибда апелляция комиссияси ташкил этилади.

Апелляция комиссияси талабаларнинг аризаларини кўриб чиқиб, шу куннинг ўзида хулосасини билдиради.

26. Баҳолашнинг ўрнатилган талаблар асосида белгиланган муддатларда ўтказилиши ҳамда расмийлаштирилиши факультет декани, кафедра мудири, ўқув бўлими ҳамда ички назорат ва мониторинг бўлими томонидан назорат қилинади.

V. Рейтинг натижаларини қайд қилиш ва таҳлил этиш тартиби

27. Талабанинг фан бўйича назорат турларида тўплаган баллари семестр якунида рейтинг қайдномасига бутун сонлар билан қайд қилинади. Рейтинг дафтарчасининг "Ўқув режасида ажратилган соат" устунига семестр учун фанга ажратилган умумий ўқув юклама соатлари, "Фандан олинган баҳо" устунига эса 100 баллик тизимдаги ўзлаштириши қўйилади.

Талабанинг саралаш балидан паст бўлган ўзлаштириши рейтинг дафтарчасига қайд этилмайди.

28. Ҳар бир фан бўйича ўтказиладиган назорат турларининг натижалари гуруҳ журнали ҳамда қайдномада қайд этилади ва шу куннинг ўзида (назорат тури ёзма иш шаклида ўтказилган бўлса, 2 (икки) кун муддат ичида) талабалар эътиборига етказилади.

29. Якуний назорат натижаларига кўра фан ўқитувчиси талабаларнинг фан бўйича рейтингини аниқлайди ҳамда рейтинг дафтарча ва қайдноманинг тегишли қисмини тўлдиради.

30. Талабанинг рейтинги унинг билими, кўникмаси ва малакалари даражасини белгилайди. Талабанинг семестр (курс) бўйича умумий рейтинги барча фанлардан тўпланган рейтинг баллари йиғиндиси орқали аниқланади.

31. Талабалар умумий рейтинги ҳар бир семестр ва ўқув йили якунлангандан сўнг эълон қилинади.

32. Диплом иловаси ёки академик маълумотномани деканат томонидан расмийлаштиришда фан бир неча семестр давом этган бўлса, рейтинглар йиғиндиси олинади.

Талабага имтиёзли диплом белгилашда унинг ҳар бир семестр якунидаги фанлар бўйича ўзлаштириш кўрсаткичи ҳисобга олинади.

33. Талабаларнинг назорат турлари бўйича эришган натижалари кафедралар, деканатлар ва ўқув-методик бўлинмаларида компьютер хотирасига киритилиб, мунтазам равишда таҳлил қилиб борилади.

34. Жорий, оралиқ ва якуний назорат натижалари кафедра йиғилишлари, факультет ва олий таълим муассасаси Илмий кенгашларида мунтазам равишда муҳокама этиб борилади ва тегишли қарорлар қабул қилинади.

VI. Якуний қоидалар

35. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази тест баҳолари ва рейтинг балларининг холислигини текширишни ташкил этади ва назорат қилади.

36. Ушбу Низомда белгиланган масалалар бўйича келиб чиққан низолар қонун ҳужжатлари асосида ҳал қилинади.

37. Ушбу Низом Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази, Халқ таълими вазирлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги, Маданият ва спорт ишлари вазирлиги, Ўзбекистон Бадиий академияси, Ташқи ишлар вазирлиги, Ўзбекистон алоқа ва ахборотлаштириш агентлиги, "Ўзбекистон темир йўллари" давлат-акциядорлик компанияси, Давлат солиқ қўмитаси ва Навоий кон-металлургия комбинати билан келишилган.

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

B U X O R O D A V L A T U N I V E R S I T E T I

BUXORO, M. IQBOL, 11 Tel: (365) 223-23-14; Faks: (365) 223-12-54.

Б У Й Р У Қ

№ 352-У **«6» сентябр 2010 йил**

Талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизимига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида

Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2010 йил 25 августдаги “Олий таълим муассасаларида талабалар билимини назорат килиш ва баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисидаги Низомга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги 333-сонли буйруғи ижросини таъминлаш, шунингдек, университет талабаларининг билим савияси, кўникма ва малакаларини назорат қилиш ҳамда баҳолаш жараёнларини такомиллаштириш мақсадида

БУЮРАМАН:

1. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 2010 йил 26 августда 1981-1-сон билан рўйхатдан ўтказилган Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2010 йил 25 августдаги 333-сонли буйруғи билан тасдиқланган “Олий таълим муассасаларида талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисидаги Низомга ўзгартириш ва қўшимчлар киритиш ҳақида”ги буйруғи дастуруламал сифатида қабул қилинсин.

2. 2010-2011 ўқув йили 5 сентябридан бошлаб университетнинг барча таълим йўналишлари ва мутахассисликларида талаба (магистрант)лар билимини назорат қилиш ва баҳолаш вазирлик томонидан тасдиқланган Низом ҳамда университетнинг ички Низоми асосида амалга оширилсин.

3. Талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисидаги университет ички Низоми иловага мувофиқ тасдиқлансин.

4. Ўқув ишлари проректори (Б.Я.Ахмедов) ва ўқув-услубий бошқарма бошлиғи (Ҳ.Т.Авезов)га:

4.1. 2010 йил 10 сентябргача Низомни амалиётга тадбиқ этиш бўйича университетнинг барча факультет ва кафедраларида семинарлар ўтказиш;

4.2. Барча кафедраларда рейтинг Низомига мувофиқ меъёрий ҳужжатларнинг ишлаб чиқилишини таъминлаш;
4.3. Низом нусхасини барча факультет ва кафедраларга тегишли эълон тахталарида ёритишни ташкил этиш;
4.4. Талабаларнинг жорий, оралиқ ва якуний назоратларида эришган ва тегишли ҳужжатлар (гуруҳ журнали, ўқитувчининг шахсий журнали, рейтинг қайдномаси)да қайд этилган ўзлаштириш кўрсаткичлари деканатлар ва ўқув-услубий бошқарма компьютерлари хотирасига киритилиб мунтазам равишда таҳлил қилиб бориш.
4.5. Жорий, оралиқ ва якуний назорат натижалари кафедра йиғилишлари, факультет ва университет Илмий кенгашларида мунтазам муҳокама этиб бориш ва тегишли қарорлар қабул қилиш.
4.6. Ректорат буйруғи билан ички назорат ва мониторинг бўлими раҳбарлигида комиссия тузилсин ва унинг иштирокида якуний назоратни ўтказиш жараёни даврий равишда ўрганиб бориш ҳамда уни ўтказиш тартиблари бузилган ҳолларда, якуний назорат натижалари бекор қилиш ва якуний назорат қайта ўтказилиш вазифалари топширилсин **(Муддат: доимий).**

5. Факультет деканлари ва кафедра мудирларига:

- Низомга мувофиқ назорат турлари, уларни ўтказиш тартиби ва мезонларини ишлаб чиқиш ҳамда факультет ўқув-услубий кенгашида муҳокама қилиш, тасдиқлаш, баҳолаш балларини ҳар бир фаннинг ишчи ўқув дастуридаги машғулот турлари билан биргаликда кўрсатилишини таъминлаш;
- Рейтинг назорати жадваллари, назорат тури, шакли, сони ҳамда ҳар бир назоратга ажратлган максимал балл, шунингдек, жорий, оралиқ ва якуний назоратларнинг саралаш баллари ҳақидаги маълумотларни фан бўйича биринчи машғулотларда талабаларга эълон қилинишини таъминлаш;
- Рейтинг ойналарини ташкил этиш ва уларда ҳар бир фан бўйича ўтказиладиган баҳолаш турларининг (ЖБ, ОБ, ЯБ) натижаларини ёритиб бориш ҳамда талабалар эътиборига етказиш;
- Рейтинг тизимини жорий этиш вазифаларидан келиб чиқиб, фанларни услубий таъминлаш, машғулотларни замонавий ахборт ва педагогик технологик технологияларидан фойдаланиб ўтилишига жиддий эътибор бериш вазифалари топширилсин.

6. Ушбу буйруқнинг бажарилишини назорат қилишни ўз зиммамда қолдираман.

АСОС. Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2010 йил 25 августдаги 333-сонли буйруғи.

Ректор в.б. С.Қ.Қаҳҳоров

Лойиҳа киритувчи:
Ўқув ишлар проректори Б.Я.Ахмедов

Келишилди:
Ҳуқуқшунос Қ.Қ.Эшев

БухДУнинг 2010 йил 6 сентябрдаги
352-У сонли буйруғига илова

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги
Бухоро давлат университетида талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисида
Н И З О М

Мазкур Низом Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 2010 йил 26 август куни 1981-1-сон билан рўйхатга олинган Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигнинг 2010 йил 25 агустдаги "Олий таълим муассасаларида талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисидаги Низомга ўзгартириш ва қўшимчлар киритиш ҳақида"ги 333-сонли буйруғи билан тасдиқланган "Олий таълим муассасаларида талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисида"ги Низом асосида ишлаб чиқилди ва у Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 9-сон, 225-модда) ва "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида"ги (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 11-12-модда, 295-модда) қонунларига ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 16 августдаги 343-сон "Олий таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида" қарорига (Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2001 й., 15-16-сон, 104-модда) мувофиқ университетда талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизимини тартибга солади.

I. Умумий қоидалар

1. Талабалар билимини назорат қилиш ва рейтинг тизими орқали баҳолашдан **МАҚСАД** таълим сифатини бошқариш орқали рақобатбардош кадрлар тайёрлашга эришиш, талабаларнинг фанларни ўзлаштиришида бўшлиқлар ҳосил бўлишини олдини олиш, уларни аниқлаш ва бартараф этишдан иборат.

2. Рейтинг тизимининг асосий **ВАЗИФАЛАРИ** қуйидагилардан иборат:

а) талабаларда Давлат таълим стандартларига мувофиқ тегишли билим, кўникма ва малакалар шаклланганлиги даражасини назорат қилиш ва таҳлил қилиб бориш;

б) талабалар билими, кўникма ва малакаларини баҳолашнинг асосий тамойиллари: Давлат таълим стандартларига асосланганлик, аниқлик, ҳаққонийлик,ишончлилик ва қулай шаклда баҳолашни таъминлаш;

в) фанларнинг талабалар томонидан тизимли тарзда ва белгиланган муддатларда ўзлаштирилишини ташкил этиш ва таҳлил қилиш;

г) талабаларда мустақил ишлаш кўникмаларини ривожлантириш, ахборот ресурслари манбаларидан самарали фойдаланишни ташкил этиш;

д) талабалар билимини холис ва адолатли баҳолаш ҳамда унинг натижаларини вақтида маълум қилиш;

е) талабаларнинг фанлар бўйича комплекс ҳамда узлуксиз тайёргарлигини таъминлаш;

ж) ўқув жараёнининг ташкилий ишларини компьютерлаштиришга шароит яратиш.

3. Фанлар бўйича талабалар билимини семестрда баҳолаб бориш рейтинг назорати жадваллари ва баҳолаш мезонлари асосида амалга оширилади.

II. Назорат турлари ва уни амалга ошириш тартиби

4. Назорат турлари, уни ўтказиш тартиби ва мезонлари кафедра мудири тавсияси билан факультет ўқув-услубий кенгашида муҳокама қилинади ва тасдиқланади ҳамда ҳар бир фаннинг ишчи ўқув дастурида машғулот турлари билан биргаликда кўрсатилади.

5. Рейтинг назорати жадваллари, назорат тури, шакли, сони ҳамда ҳар бир назоратга ажратилган максимал балл, шунингдек жорий ва оралиқ назоратларнинг саралаш баллари ҳақидаги маълумотлар фан бўйича биринчи машғулотда талабаларга эълон қилинади.

6. Талабаларнинг билим савияси ва ўзлаштириш даражасининг Давлат таълим стандартларига мувофиқлигини таъминлаш учун қуйидаги назорат турларини ўтказиш назарда тутилади:

ЖОРИЙ НАЗОРАТ – талабанинг фан мавзулари бўйича билим ва амалий кўникма даражасини аниқлаш ва баҳолаш усули. Жорий назорат фаннинг хусусиятидан келиб чиққан ҳолда, семинар, лаборатория ва амалий машғулотларида оғзаки сўров, тест ўтказиш, суҳбат, назорат иши, коллоквиум, уй вазифаларини текшириш ва шу каби бошқа шаклларда ўтказилиши мумкин. **Семестр давомида жорий назоратлар сони 5 тадан ошмаслиги мақсадга мувофиқ.**

ОРАЛИҚ НАЗОРАТ – семестр давомида ўқув дастурининг тегишли (фаннинг бир неча мавзуларини ўз ичига олган) бўлими тугаллангандан кейин талабанинг билим ва амалий кўникма даражасини аниқлаш ва баҳолаш усули. Оралиқ назоратининг сони (бир семестрда 2 мартадан кўп ўтказилмаслиги лозим) ва шакли (ёзма, оғзаки, тест ва ҳоказо) **ўқув фанига ажратилган умумий соатлар ҳажмидан келиб чиққан ҳолда кафедра томонидан белгиланади.**

ЯКУНИЙ НАЗОРАТ – семестр якунида муайян фан бўйича назарий билим ва амалий кўникмаларни талабалар томонидан ўзлаштириш даражасини баҳолаш усули. Якуний назорат асосан таянч тушунча ва ибораларга асосланган "**ЁЗМА ИШ"** шаклида ўтказилади.

Таълим йўналиши ва мутахассисликлари айрим фанларининг хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда факультет Илмий кенгаши қарори асосида кўпи билан **40% ФАНЛАРДАН ЯКУНИЙ НАЗОРАТЛАР** бошқа шаклларда (оғзаки, тест ва ҳоказо) ўтказилиши мумкин.

Ўқув режасидаги барча фанлар бўйича **ЖН, ОН** ва **ЯН** ўтказилади.

Кафедрада ҳар бир фандан талабанинг билимини аниқлаш мақсадида **ЖН, ОН, ЯН** турлари учун фан дастури талабларига жавоб берадиган тест, тест карточкалари, назорат саволлари тўплами, савол-жавоб билетлари, ёзма иш вариантлари ва бошқа кўринишдаги назорат ишлари, шунингдек, назоратнинг ҳар бири тури бўйича балл қўйиш мезонлари тайёрланиб, кафедранинг август ойидаги йиғилишида тасдиқланади.

Семестр давомида ўқитиладиган фанлардан назорат турлари бўйича кафедралар томонидан режалаштирилган синовлар ва уларни ўтказиш муддатлари (рейтинг жадвали) кафедра ёки факультет "Рейтинг ойнаси"да осиб қўйилади, унинг бажарилиши деканат томонидан мувофиқлаштирилиб турилади ва назорат қилиб борилади.

Талабаларнинг ўзлаштириш кўрсаткичлари, рейтинг назоратининг бориши, факультет Кенгаши ва кафедра йиғилишида мунтазам муҳокама этиб борилади ҳамда паст ўзлаштирувчи талабалар билан якка тартибда концультациялар ўтказилади.

7. Оралиқ назоратни ўтказиш жараёни кафедра мудири томонидан тузилган комиссия иштирокида даврий равишда ўрганиб борилади ва уни ўтказиш тартиблари бузилган ҳолларда, оралиқ назорат натижалари комиссия қарорига биноан бекор қилиниши мумкин. Бундай ҳолларда оралиқ назорат қайта ўтказилади.

8. Университет ректорининг буйруғи билан ички назорат ва мониторинг бўлими раҳбарлигида тузилган комиссия иштирокида якуний назоратни ўтказиш жараёни даврий равишда ўрганиб борилади ва уни ўтказиш тартиблари бузилган ҳолларда, якуний назорат натижалари комиссия таклифига биноан декан фармойиши билан бекор қилиниши мумкин. Бундай ҳолларда якуний назорат қайта ўтказилади.

9. Ўқув йили тугаганидан кейин рейтинг назорати натижаларига кўра талабаларни кейинги курсга ўтказиш тўғрисида белгиланган тартибда қарор қабул қилинади.

III. Баҳолаш тартиби ва мезонлари

10. Талабаларнинг билим савияси, кўникма ва малакаларини назорат қилишнинг рейтинг тизими асосида талабанинг ҳар бир фан бўйича ўзлаштириш даражаси баллар орқали ифодаланади.

11. Ҳар бир фан бўйича талабанинг семестр давомидаги ўзлаштириш кўрсаткичи **100** баллик тизимда баҳоланади.

Ушбу **100 балл** назорат турлари бўйича қуйидагича тақсимланади:

якуний назоратга (ўтказилиш шаклидан қатъий назар) – **30 балл;**

жорий назоратга **30** балл ва **оралиқ назоратларга** **40** балл**.** (Фаннинг хусусиятидан келиб чиққан ҳолда кафедра йиғилиши қарори билан тақсимот нисбати ўзгартирилиши мумкин).

12**.** Талабанинг рейтинг дафтарчасига алоҳида қайд қилинадиган курс иши (лойиҳаси, ҳисоб-график ишлари), малакавий амалиёт, фан (фанлараро) бўйича якуний давлат аттестацияси, битирув малакавий иши ва магистратура талабаларининг илмий-тадқиқот ва илмий-педагогик ишлари, магистрлик диссертацияси бўйича ўзлаштириш даражаси – 100 баллик тизимда баҳоланади.

Амалиётлар бали қуйидагича тақсимланади.

Малакавий, ишлаб чиқариш амалиётида:

Ихтисослик (мутахассислик) фанларига ҳисоботнинг ҳимояси билан бирга максимал балнинг **85** фоизи, амалиёт ҳужжатларини расмийлаштиришда максимал балнинг **15** фоизи;

Педагогик амалиётда:

Ихтисослик (мутахассислик) фанларига максимал балнинг **50** фоизи, педагогика фанига **20** фоизи, психология фанига **15** фоизи, амалиёт ҳужжатларини расмийлаштириш ва ҳисобот ҳимоясига **15** фоизи қўйилади.

13. Талабанинг фан бўйича ўзлаштириш кўрсаткичини назорат қилишда қуйидаги намунавий мезонлар тавсия этилади:

а) 86-100 балл учун талабанинг билим даражаси қуйидагиларга жавоб бериши лозим:

хулоса ва қарор қабул қилиш;

ижодий фикрлай олиш;

мустақил мушоҳада юрита олиш;

олган билимларини амалда қўллай олиш;

моҳиятини тушуниш;

билиш, айтиб бериш;

тасаввурга эга бўлиш.

б) 71-85 балл учун талабанинг билим даражаси қуйидагиларга жавоб бериши лозим:

мустақил мушоҳада юрита олиш;

олган билимларини амалда қўллай олиш;

моҳиятини тушуниш;

билиш, айтиб бериш;

тасаввурга эга бўлиш.

в) 55-70 балл учун талабанинг билим даражаси қуйидагиларга жавоб бериши лозим:

моҳиятини тушуниш;

билиш, айтиб бериш;

тасаввурга эга бўлиш.

в) қуйидаги ҳолларда талабанинг билим даражаси 0-54 балл билан баҳоланиши мумкин:

аниқ тасаввурга эга бўлмаслик;

билмаслик.

14. Намунавий мезонлар асосида муайян фандан жорий ва оралиқ назоратлар бўйича аниқ мезонлар ишлаб чиқилиб, кафедра мудири томонидан тасдиқланади ва талабаларга биринчи машғулотда эълон қилинади.

15. Намунавий мезонларга мувофиқ мутахассислик фанлар бўйича таянч олий таълим муассасалари томонидан ишлаб чиқилган якуний назорат учун баҳолаш мезонларидан фойдаланилади.

16**.** Талабаларнинг ўқув фани бўйича мустақил иши жорий, оралиқ ва якуний назоратлар билан қўшиб ўтказилади ва баҳолаш жараёнида тегишли топшириқларни бажариши ва унга ажратилган баллар билан бирга ҳисобланади.

17. Талабанинг фан бўйича бир семестрдаги рейтинги ҳамда дипломга илова ёки академик маълумотномани деканат томонидан расмийлаштириш қуйидагича аниқланади:

$$R_f = \frac{V \bullet O'}{100}$$

бу ерда:

V– семестрда фанга ажратилган умумий ўқув юкламаси (соатларда);

O' –фан бўйича ўзлаштириш даражаси балларда (фан бир неча семестр давом этса ўртача балл олинади).

18**.** Фан бўйича жорий ва оралиқ назоратларга ажратилган умумий балнинг **55 фоизи** саралаш бали ҳисобланиб (39 балл), ушбу фоиздан кам балл тўплаган талаба якуний назоратга киритилмайди.

Жорий ва оралиқ назорат турлари бўйича **55 ва ундан юқори** баллни тўплаган талаба фанни ўзлаштирган деб ҳисобланади ва у шу фан бўйича якуний назоратга кирмаслиги мумкин.

19. Талабанинг семестр давомида фан бўйича тўплаган умумий бали ҳар бир назорат туридан белгиланган қоидаларга мувофиқ тўплаган баллари йиғиндисига тенг бўлади.

IV. Назорат турларини ўтказиш муддати

20. Оралиқ ва якуний назорат турлари календарь тематик режага мувофиқ деканат томонидан тузилган рейтинг назорат жадваллари асосида ўтказилади. Якуний назорат семестрнинг охирги 2 ҳафтаси мобайнида ўтказилади. (Фан семестр давомида тугаганда якуний назорат охирги оралик назоратдан сўнг 2 ҳафта давомида ўтказилиши мумкин).

21. Талаба фан бўйича курс лойиҳаси (иши)ни ушбу фан бўйича тўплаган баллари умумлаштирилишига қадар топшириши шарт.

22. Жорий ва оралиқ назоратларда саралаш балидан кам балл тўплаган ва узрли сабабларга кўра назоратларда қатнаша олмаган талабага қайта топшириш учун, навбатдаги шу назорат туригача, сўнгги жорий ва оралиқ назоратлар учун эса якуний назоратгача бўлган муддат берилади.

Касаллиги сабабли дарсларга қатнашмаган ҳамда белгиланган муддатларда жорий, оралиқ ва якуний назоратларни топшира олмаган талабаларга факультет декани фармойиши асосида, ўқишни бошлаганидан сўнг икки ҳафта муддатда топширишга рухсат берилади.

23. талабанинг семестрда жорий ва оралиқ назорат турлари бўйича тўплаган баллари ушбу назорат турлари умумий балининг 55 фоизидан кам бўлса ёки семестр якунида жорий, оралиқ ва якуний назорат турлари бўйича тўплаган бааллари йиғиндиси 55 баллдан кам бўлса у академик қарздор ҳисобланади.

Академик қарздор талабаларга семестр тугаганидан кейин қайта ўзлаштириш учун **бир ой** муҳлат берилади. Шу муддат давомида фанни ўзлаштира олмаган талаба, факультет декани тавсиясига кўра белгиланган тартибда ректорнинг буйруғи билан талабалар сафидан четлаштирилади.

24. Талаба назорат натижаларидан норози бўлса, фан бўйича назорат тури натижалари эълон қилинган вақтдан бошлаб бир кун мобайнида факультет деканига ариза билан мурожаат этиши мумкин. Бундай ҳолда факультет деканининг тақдимномасига кўра ректор буйруғи билан 3 (уч) аъзодан кам бўлмаган таркибда апелляция комиссияси ташкил этилади.

Апелляция комиссияси талабаларнинг аризаларини кўриб чиқиб, шу куннинг ўзида хулосасини билдиради.

25. Баҳолашнинг ўрнатилган талаблар асосида белгиланган муддатларда ўтказилиши ҳамда расмийлаштирилиши факультет декани, кафедра мудири, ўқув бўлими ҳамда ички назорат ва мониторинг бўлими томонидан назорат қилинади.

V. Рейтинг натижаларини қайд қилиш ва таҳлил этиш тартиби

26. Талабанинг фан бўйича назорат турларида тўплаган баллари йиғиндиси семестр якунида рейтинг қайдномасига бутун сонлар билан қайд қилинади. Рейтинг дафтарчасининг “Ўқув режасида ажратилган соат” устунига семестр учун фанга ажратилган умумий ўқув юклама соатлари, “Фандан олинган баҳо” устунига эса 100 баллик тизимдаги ўзлаштириши қўйилади.

Талабанинг саралаш балидан паст бўлган ўзлаштириши рейтинг дафтарчасига қайд этилмайди**.**

27. Ҳар бир фан бўйича ўтказиладиган назорат турларининг натижалари гуруҳ журнали ҳамда қайдномада қайд этилади ва шу куннинг ўзида (назорат тури ёзма иш шаклида ўтказилган бўлса, 2 (икки) кун муддат ичида) талабалар эътиборига етказилади.

28. Якуний назорат натижаларига кўра фан ўқитувчиси талабаларнинг фан бўйича рейтингини аниқлайди ҳамда рейтинг дафтарча ва қайдноманинг тегишли қисмини шахсан ўзи тўлдиради.

29. Талабанинг рейтинги унинг билими, кўникмаси ва малакалари даражасини белгилайди. Талабанинг семестр (курс) бўйича умумий рейтинги барча фанлардан тўпланган рейтинг баллари йиғиндиси орқали аниқланади.

30. Талабалар умумий рейтинги ҳар бир семестр ва ўқув йили якунлангандан сўнг деканат томонидан эълон қилинади.

31. Диплом иловаси ёки академик маълумотномани деканат томонидан расмийлаштиришда фан бир неча семестр давом этган бўлса, рейтинглар йиғиндиси олинади.

Талабага имтиёзли диплом белгилашда унинг ҳар бир семестр якунидаги фанлар бўйича ўзлаштириш кўрсаткичи ҳисобга олинади.

32. Талабаларнинг назорат турлари бўйича эришган натижалари деканатлар ва ўқув-методик бошқармасида компьютер хотирасига киритилиб, мунтазам равишда таҳлил қилиб борилади.

33. Жорий, оралиқ ва якуний назорат натижалари кафедра йиғилишлари, факультет ва университет Илмий кенгашларида мунтазам равишда муҳокама этиб борилади ва тегишли қарорлар қабул қилинади.

VI. Махсус сиртқи таълим шаклида рейтинг назорати ўтказиш тартиби

34. Ушбу Низомнинг барча бандлари тўлиқ махсус сиртқи бўлимда ҳам тадбиқ этилади.

Сессия даврида ўтиладиган назарий ва амалий машғулотлар жорий баҳолаш шаклида ўқув жараёни тугагунча ўтказилади ва талабанинг ўзлаштириш кўрсаткичи 30 баллик тизим билан баҳоланади.

Махсус сиртқи таълим шакли ўқув жараёнида талабанинг мустақил таълим олиши асосий компонент эканлигини инобатга олиб, мустақил таълим ОБ шаклида 40 баллик тизимда баҳоланади.

Жорий ва оралиқ назорат турлари бўйича **55 ва ундан юқори** баллни тўплаган талаба ушбу фанни ўзлаштирган деб ҳисобланади ва у якуний назоратга кирмаслиги мумкин. Якуний назорат махсус сиртқи бўлим томонидан тузилган жадвал асосида ўтказилади.

VII. Якуний қоидалар

35. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази тест баҳолари ва рейтинг балларининг холислигини текширишни ташкил этади ва назорат қилади.

36. Ушбу Низомда белгиланган масалалар бўйича келиб чиққан низолар қонун ҳужжатлари асосида ҳал қилинади.